




O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI
VAZIRLIGI

**FARG‘ONA VILOYATI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH
INSTITUTI**

* * *

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA
SINFDAN TASHQARI O‘QISH
DARSLARIDA FOYDALANISH
UCHUN.**

**(boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun
uslubiy yordam)**

Taqrizchilar:

1. _____
2. O. Mamaziyayev - FVPKQTMOI til va adabiyot ta'limi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Tavsiyanoma tuzuvchi:

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi Nigora
Abdurahmonova.

USHBU USLUBIY TAVSIYANOMA FARG'ONA VILOYATI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH
INSTITUTINING 2014 YIL _____ -SONLI ILMIY KENGASH
YIG'ILISHI QARORIGA ASOSAN TASDIQLANDI.

Kirih

Bolalar uchun ijod etish an'analari juda erta boshlangan bo'lib, uzoq o'tmishga ega. Ertaklar, maqollar, topishmoqlar, qo'shiq (alllar, o'yin qo'shiqlari, ovunmachoqlar, ertakalatlilar, sanoqlama) lar singari turli janrlarda yaratilgan asarlar, avvalo, fol'klor namunalari sifatida paydo bo'lgan. O'rta Osiyo xalqlarida esa Shiroq, To'maris, Guldursun, Zarina, Sparetra, odatida haqidagi afsonalar zo'r Shuhrat qozongani Gerodot asarlari va boShqa qadimiy manbalardan ma'lumdir. O'rta Osiyo xalqlari madaniyatining keyingi taraqqiyotiga xos hodisa –hind va arab folklori namunalarining kirib kelishi, yoyilishi, yerli xalqlarida og'zaki ijodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib singa boshlashidir. Kichik maktab yoshidagi bolalar kitobiga qo'yiladigan talablar. Bolalarga o'zlari sezgan va o'ylaganlarini gapirib berish g'oyat qiyin, chunki ularni so'z orqali ifodalashga to'g'ri keladi. Bu maktab yoshidagi kichik bolalarga atab yoziladigan asarlar tematik doirasining ancha keng bo'lishini, g'oyaviy jihatdan murakkablashuvini taqozo etadi. Bu yoshdagi bolalar, psixologlarning ma'lumotlariga ko'ra, 3600 tacha so'zdan foydalaniadi. Bola hali 7-9 yoshligida hayvonlar, qushlar, hasharotlar, o'simliklar va boShqa narsalar to'g'risidagi ertaklarga qancha qiziqsa, insonlar va ular o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi asarlarga ham Shuncha qiziq boShlaydi. Xalq og'zaki ijodi va bolalar kitobxonligi . ertaklar g'oyaviy –tematik jihatdan juda hilma-xil va rang-barangbo'ladi. Ertaklar (“Ur to'qmoq” , “Ochil dasturxon”, “Malikai Husnobod” va boShqalar , hayvonlar va jonivorlar haqidagi ertaklar “Bo'ri bilan qo'zichoq”, “Echkining o'ch olishi”, “bo'ri bilan tulki” va boShqalar hayotiy ertaklar (“Ahmoq podsho va cho'pon”, “Alisher va kitob” va boShqalar). Bolalar o'zlarini yosh xususiyatlariga qarab ertaklarning u yoki bu turiga ko'proq qiziqadilar. Masalan, maktabgacha tarbiya yoShidagi va kichik maktab yoShidagi bolalar ko'proq hayvonlar va jonivorlar haqidagi, qisman afsonaviy ertaklarga katta havas bilan qaraydilar. Ular haqidagi she'rlar ,

qo'shiqlarga ham qiziqishlari katta bo'ladi. Chunki ular tabiatan hayvonlar, quShlarni, jonivorlarni seviShadi.

1- sinf o'quvchilari uchun she'rlar

BUZOQ

Men buzoqman, buzoqman,
Shoxim chiqqan – suzoqman,
Lekin yumdalab tortmang,
U yon- bu-yonga otmang,
Ikkit yerga yo'latmang

O'yinchoqman, qulatmang.
Buksangiz qayrillaman,
Oyoqdan ayilman.
Mayli, o'ynangerta-kech,
Lekin ozor bermang hech!

YOMG'IR YOG'ALOQ

Tarnovdan oshib,
Tushadi shoshib
So'ng jilg'alardan
Oqadi toShib.

Yomg'irdan foyda
Maysaga, donga.
Yurt serob bo'lar
Oq bug'doy nonga

Yomg'ir yog'aloq
Tomchi yumaloq
Yomg'ir tinganda
Chiqar kamalak

AYIQ

O'rmonda bo'lganmisiz?
Ayiqni qo'rganmisiz?
Ustida po'stini bor
Pisand emas unga qor
Men uning naslidanman.
Ayiqning aslidanman.
Otamdan qoldi po'stin
O'Sha po'stin menga to'n
Farqim shu men qo'g'irchoq,
Bolalarga o'yinchoq.

TOYCHOQ

Toychog'im bor- uqir ot,
Quralay ko'z –tulpor zot.
Egar –jabduq uraman,
Minib olg'a suraman
O'zi yog'och, yo'li qil,
Ovunchog'im olg'a yel!

TINCHLIK YASHAR

Vatanim –quyosh,
Boshimni silar
U menga ko'z- qosh,
Iqbolim tilar.
Quvnar erkin, shod,
Bo'laman katta.
Baxt bor umurbod,
Tinch mamlakatda.

O'YIN QO'SHIQLARI

1. Chitti gulay, chitti gul,
Etagingga gul bosdim.
Hayu chitti gul,
Hayu chitti gul.
2. Qo'ling gulbog'ida bo'lsin,
Beling belbog'ida bo'lsin.
Hayu chitti gul,
Hayu chitti gul.
3. Dupur –dupur ot keldi,
Chiqib qarang, kim keldi?
Hayu chitti gul,
Hayu chitti gul.
4. Aravada un keldi,
Childirmada gul keldi
Hayu chitti gul,
Hayu chitti gul.
5. Gul yaxshi-yu, gul yaxshi,
Gulning popugi yaxshi
Hayu chitti gul,
Hayu chitti gul.
6. O'rtada o'ynagan qizining
Haydar kokil yaxshi
Hayu chitti gul,
Hayu chitti gul.

1-sinf

SAVOL- JAVOB QO'SHIQLARI

- Qo'yining qayda?
- Qo'yliqda.
- Tuzing qayda?

- Tuziqda
- Qo'ying nima yeydi?
- O't yeydi, beda yeydi.
- Yog', go'sht, jun beradi?
- Shu qizingga nima beray?
Karnaymi, surnaymi,
Childirmami, nog'orami
- Boylandi, boylandi,
Xadicha boylandi.
- Nima uchun boylandi?
- O'yin uchun boylandi.

Maqollar ko'proq falsafa, ahloqiy- ta'limiy, xalqparvarlik va vatanparlik mavzularida yaratiladi hamda juda katta didaktik ahamiyatga ega bo'ladi.

Maqollar halq ijobiy tafakkurining yuqori va murakkab formalarida bo'lib, bolalar adabiyotida ham keng o'rin olgan. Ayniqsa, kichik va o'rta maktab yoShidagi bolalarning mantiqiy tafakkurining rivojida maqollarning ijobiy ta'siri katta Shaklining ixchamligidir

MAQOLLAR

Ona yurting omon bo'lsa,
Rang- ro'ying somon bo'lmas.

Ona yurting – oltin beShik.

Yurt qo'risang, o'zarsan,
Qo'rimsang to'zarsang.

Bulbul chamani sevar
Odam –Vatanni.

Mehnatsiz rohat yo'q.
Erinchoqlik boShga balo keltirar.

Ishlagan – tishlaydi,
Ishlamagan –kishnaydi.

Bog'ni boqsang, bog' bo'ladi,
Botmon dahsar yog' bo'ladi.

Boqimsiz bog' tog' bo'ladi,
Yurak –bag'ring dog' bo'ladi.

Dehqon bo'lsang kuz hayda,

Kuz haydamasang, yuz hayda!

Oltin o'tda, odam mehnatda bilinar .

Bugungi ishni ertaga qo'yma!
Yigit kishiga yetmish hunar ham oz.

Barvaqt qilingan harakat
Hosilga berar barakat.

Bir yil tut ekan kishi
Yuz yil gavhar terradi.

Bir tup tok eksang
Bir tup tol ek!

Bobongining tol ekkani
O'ziga nom ekkani.

Gap bilan bilan shoshma,
Ish bilan shosh

Ish seni yengmasin,
Sen ishni yeng.

Ko'pchilik qo'lda unum ko'p.

Ish quroling soz bo'lsa,
Mashaqating oz bo'lar.

Halol mehnat – yaxshi odat,
Berur senga saodat .

1-sinf

Topishmoqlar ko'proq narsa va predmentlar, tabiat hodisalari, hayvonlar va jonvorlar, uy aShyolari, texnika predmentlari, fasllar xususida yaratilgan bo'lib, bolaning hayot haqidagi tavsavvurini kengaytirad, tajribasi va bilimini boyitadi.

TOPISHMOQLAR

1. Bodom kabi yaprog'i,
Sollanadi butog'i,
O'zi Shirin, tukligina,
Mazasi totligina (Shaftoli)

2. Bir onadan yuz bola,
Yuzovi ham bo'z bola. (Uzum)
3. Dum –dumaloq, jajji oy,
Chaqib yesang, g'ij-g'ij moy (Yong'oq)
4. Pat-pat etar,
Yurib o'tar,
Izi tezda
O'chib ketadr (Kema)
5. Yomg'ir yog'aloq,
Tarvuz yumaloq,
Jaladan qo'rqmas
Laqqa baqaloq (Baliq)
6. Gulsiz meva qiladi,
Ko'p yesang –til shiladi,
G'ip-g'ildirak oy kulcha,
Bu nima, kim biladi?
7. Shakli o'xshar o'roqqa,
Doim tutar so'roqqa. (So'roq belgisi)
8. Malla tukli, sap-sariq,
Murabbosi mazalik,
Palovga bossa bo'lar,
Podvalna ossa bo'lar,
Tishlab ko'rib, ayt, Mehri!
Bumi, dadavoy
(Behi)
9. Qozon ichi oppoq qor
(Shirguruch)
10. Zuv-zuv borar, zuv –zuv kelar,
Doston o'qir, g'alvir to'qir.

1- sinf

Tez aytiSh ham topiShmoqlar kabi o'z tabiati bilan juda ommaviy janr bo'lib, ko'proq bolalarning kollektiv o'yini bilan bog'liq. U ayniqsa, bog'cha va kichik maktab yoShidagi bolalar uchun qiziqarli janr hisoblanadi. Tez aytiSh o'z tabiati bilan asosan bolalar juda qiziqarli jaranglaridan xisoblanadi. Tez aytiShning bolalar nutq madaniyatini o'stiriShdagi roli ayniqsa kattadir.

TEZ AYTISHLAR

1. Olti juft oq chinni chinni choynakka to'rt juft ko'k qopqoq to'rt juft ko'k chini choynakka olti jut oq qopqoq yopsa bo'ladimi?
2. O'ktam ko'm- ko'k, ko'rkam rasmini ko'p ko'k qalamda chizmoqchi
3. Sodiqliq sochiqqa sochini artadimi, sochiqliq Sodiqliq sochini aratadimi?
4. Zanjir, sarjin anjir.
5. Bir tup tut tutning tagida bir tup turup. Tut turupni turtib turtiptimi, turup tutni turtib turtiptimi.
6. Oq choynakka oq qopqoq, ko'k choynakka ko'k qopqoq.
7. Jo'ja cho'chib, go'ja cho'qir.
8. Chovli –simdan, chovgum misdan
9. Jo'xorini chumchuq yeb ketdi, egasi ertaga kelamandeb ketdi.
Kelmay ketur ko'r chumchuq, jo'xorini egasi kelguncha vayron qip ketdi.
10. Osmonda ikki kalxat biri oq dumi kalta kalxat, birining qora dumi kalta kalxat. Oq dumi kalta kalxat qora dumi kalta kalxatga xalaqit beradi. Qora dumi kalta kalxat oq dumi kalta kalxatga xalaqit beradi.

1-sinf

Ertak

BIR XURMACHA SHAVLA

Bor ekan yo'q ekan, bir qizcha yaShar ekan. Qizcha bir kuni o'rmonga maymunjon olib keliSh uchun bordi va unda bir kampirni uchratdi.

-Salom, -dedi kapir qizchaga.

- Menga rahm etib maymunjonningdan bersang –chi?

- Ma , kampir, - dedi qizcha.

- Kampir maymunjonni yeb bo'lib.

- Sen menga maymunjon berding, men ham senga biron narsa sovg'a qilaman. Mana senga xurmacha, sen faqat Shuni aytiShning kerak.

Bir, ikki , uch

Xurmachada Shavla piSh.

SHunda u Shirin, mazala Shavla piShira boShlaydi. SHundan so'ng aytasanki.

Bir ikki, uch,

PiShiriShdan kech.

SHundan so'ng xurmacha Shavla piShiriShdan to'xtaydi.

- Rahmat, buvi, -dedi qizcha va xurmachani olib, uyiga – onasining oldiga ketdi.

Onasi bu xurmachaga juda suyundi.

Mehnatsiz, ovarasiz, hamma vaqt Shirin va mazali Shavla bo'lsa-yu, tag'in qanday suyunmasan?

Bir vaqt qiz uydin qayoqqadir ketdi. Onasi bo'lsa xurmachani o'z oldiga qo'yib.

Bir ikki, uch,

PiShiriShdan kech,-

deyiShi kerak edi. Lekin onasi bu so'zni esidan chiqarib qo'ygan edi. Xurmacha hamon Shavla, tomida ham Shavla, hatto ko'chalar ham Shavlaga oldida to'ldi. U hamon to'xtamay, Shavla piShira berdi. Onasi juda qo'rqqan va qizchasiga yugurdi.

Lekin yo'lda issiq Shavla daryo bo'lib oqqani uchun yaxShiyam qizchasi uydan uzoqda emas edi. Qizcha ko'chadagi voqeandan xabardor bo'lib, darrov uyga yugurdi. Juda qiyinlik bilan kelib, eShikning halqasidan uShlab ochdi va

Bir ikki, uch,
PiShiriShdan kech,-
deb qichqirdi.

SHunda xurmacha Shavla piShirShdan to'xtadi. Ammo xurmacha Shunday Shavla piShirdiki, kimning qiShloqdan Shaharga boriShga to'g'ri kelgan bo'lsa, unga bu Shavla Shaharga yetguncha kifoya qilar edi.

Hech kim bunday Shikoyatlanmadi. CHunki Shavla juda Shirin-va mazali edi.

TULKI BILAN G'OZLAR

Bir kuni bir tulki o'tloqqa kelibdi. O'tloqda ajoyib semi-semiz g'ozlar sayr etib yurgan ekan. Tulki ularni ko'rib, juda sevinib ketibdi.-da

- Maza bo'ldi, hozir hammangini yeymang ! – debdi.

G'ozlar esa.

- Tulkijon, bizlarni yema, rahmat qil ! - deb yalinShibdi.

- Rahm qiliSh-a, bo'lmagan gap. Hammangini yeyman, - debdi. Yana tulki Endi qanday qilib qutulsak ekan, deb o'ylab qoliShibdi g'ozlar.

SHunda bittasi.

- Tulkijon, o'liSh oldidan bitta qo'Shiq aytiShimizga ruxsat ber. Qo'Shiqni aytib bo'lganimizda keyin hammamizni yeysan. Hatto o'zimiz qarShingda qator tizilib turamiz, semizrog'imizni tanlaShngan oson bo'ladi. – debdi.

- Mayli, qo'Shiq aytsanglar ayta qolinglar, -debdi Tulki. Dastlab bitta g'oz qo'Shiq aytibdi. Uning qo'Shig'i mana bunaqa uzundan –uzoq ekan. “G'a-g'a g'a , g'a-g'a- g'a, g'a- g'a-g'a ! ”-deb qo'Shiq boShlabdi.

Undan keyin ikkinchi g'oz jo'r bo'libdi. “G'a-g'a g'a , g'a-g'a- g'a, g'a- g'a-g'a ! ”-deb

Undan keyin uchinchi g'oz. “G'a-g'a g'a , g'a-g'a- g'a, g'a- g'a-g'a ! ”-deb qo'Shiq boShlabdi.

Ulardan so'ng to'rtinchi xoniSh qilibdi. “G'a-g'a g'a , g'a-g'a- g'a, g'a- g'a-g'a ! ”-deb

To'rtinchi g'ozdan keyin beShinchig'oz ham. “G'a-g'a g'a , g'a-g'a- g'a, g'a- g'a-g'a ! ”-deb qo'Shiq boShlabdi.

Oxiri hamma g'ozlar birgalikda qichqirib, g'a-g'a-g'a laShiSh ga tuShibdilar.

“G'a-g'a g'a , g'a-g'a- g'a, g'a- g'a-g'a g'a-g'a-g'a g'a-g'a-g'a g'a-g'a-g'a”.

Qochonki g'ozlar qo'Shiqq'i tamom bo'lsa, ertak ham tugaydi. Shundagina tulki g'ozlarni yeydi.

Biroq aqlli g'ozlar qo'Shiqni to'xtatiShn o'ylashmabdi. Ular hozir ham “g'a-g'a g'a-g'a-g'a g'a-g'a-g'a” - deb qichiriShib turishgan emish.

2-sinf o'quvchilari uchun

TO'RT ISTAK

Kosntantin Dmitrievich Ushinskiy

Mitya qor tepaliklardan pasta qarab chanada uchdi. ToShloq qattiq muzlagan ariq va hovuzlarda o'rtoqlari bilan yaxmalak otdi. Uyda qip-qizil bo'lib, tetik va quvnoq qaytib keldi-da, otasiga qarab

Otajon, qiSh qanday yaxShi –ya!. Men hamma vaqt qiSh bo'liShini istar edim, - dedi.

Otasi uning istagini o'zining yon daftariga yozib qo'ydi. Bahor keldi. Mitya ko'k-ko'k maysazorlarda rohatlanib o'ynadi. BinafShalar, gullar terdi. Bahri ochilib ketdi. Yana otasiga. Otajon, bahor qanday ko'ngilli, men hamma vaqt bahor bo'liShini istar edim - dedi.

Otasi mityaning bu istagini ham yon daftariga yozib qo'ydi. Yoz keldi. Mitya yozining issiq kunlari bog'larda quvnab o'ynadi. O'rik, gilos, Shaftolilardan to'yib –to'yib yedi. Kechqurun otasining oldga kelib.

Otajon, yoz qanday go'zal! Men hamma vaqt yoz bo'liShini istar edim -dedi.

Otasi uning bu istagini ham yon daftariga yozib qo'ydi. Kuz keldi. Bog'larda turli uzumlar yetilib piShdi. Qovun- tarvuzlar hamma yoqni bosib ketdi. Paxta terildi. Mitya bularni ko'rib quvonib.

Otajon, kuz qanday yaxShi-ya, men vaqt kuz bo'liShini istar, edim, -dedi.

Otasi yon daftarini ochib Mityaga ko'rsatdi. Mitya esa qiSh, bahor yoz haqida ham xuddi Shu istaklarni bildirgan edi.

BEGONA TUXUM

Darya buvi etra bilan tong chog'idayoq o'rnidan turib, tovuqxonadang qorong'i, xilvatroq bir joyni tanlandi va Shu yerga savatini qo'ydi. Savatdagi yumShoq pichan ustiga o'n uchta tuxum terib qo'yilgan edi. Dar'ya buvi kurak tovuqqa tuxumlarni bostirdi.

Tong endigina yoriShib kelayogani uchun kapir o'n uchinchi tuxumning ko'kimtirroq va boShqa tuxumlardan kattaroq ekanini payqamay qoldi. Tovuq tuxumlarini hech zerikmay bosib yotdi v payqamay qoldi. Tovuq tuxumlarini hech zerikmay bosib yotdi va tanasi bilan isitdi, donlaSh va suv ichiSh uchunginia chopqillab chiqib turdi, bechora tovuq hatto tullay boShladi. U juda serjahl bo'lib qoldi, sapachiydigan, quqlab hurpayadigan bo'ldi, hatto xo'rozni ham yoniga yo'latmay qo'ydi, xo'roz bo'lsa o'sha qorong'i burozni ham yoniga yo'latmay qo'ydi, xo'roz bo'lsa o'Sha qorong'i burchakda nima bo'layotganini bilishga juda qiziqar edi. Tovuq tuxumlarni uch haftacha bosib yotdi va ulardan birin-ketin

jo'jalar chiqqa boshladi. Tovuq tumshug'i bilan tuxumni cho'qiydi- da, sakrab o'rnidan turadi, patlarini qoqadi va yerni changtib, chuvalchang izlab chopqillab yuradi.

Eng keyin ko'kimtir tuxumdan bir jo'ja chiqdi. U juda g'alati edi, yum-yumaloq, sertuk, sap- sariq, oyoqlari kalta, tumshug'i yalpoq edi. "Bu jo'jam judayam g'alati –ku, -deb o'yladi tovuq, - uning cho'qiShi ham, yurishi ham boshqacha, tumshug'i yalpoq, oyoqlari kalta va maymoq, yurganda chalishib-chalishib ketadi". Tovuq jo'jasini qo'rib hayron qoldi, lekin qanday jo'ja bo'lsa ham, har holda o'z bolasi- da! Tovuq bu jo'jani ham boshqa jo'jalardek sevar ehtiyot qilar va qirg'iyni ko'rganida patlarini hurpaytirib, yumaloq qanotlarini yozi, jo'jalarini tanasi ostiga yashirardi, qaysi o'janing oyog'i qanaqaligini ajratmasdi.

Tovuq yerdan chuvalchaglarni qanday topib yeyishga bolalarini o'rrgata boshladi va butun oilasini hovuz bo'yiga boshlab bordi- da . "U yerda chuvalchaglar ko'p, yer ham yumshoq", -dedi. Katta oyoqli jo'ja suvni ko'rishi bilanoq unga o'zini tashladi. Tovuq g'ag'aladi, qanotlarini qoqdi, suvga intildi, jo'jalar ham cho'chib ketishdi, yuguriShdi, bir- birlarining pinjiiga kirishdi, chiyovlashdi va bir xo'rozga esa qo'qqanidan toSh ustiga chiqib oldi-da, umrida birinchi marta bo'ynini cho'zib, bo'g'iq ovoz bilan. "qu-qu-qu-qu-qu!"- deb qichqirib yubordi. Uning bunday qilgani, yordam beringlar rahmdil odamlar! Ukamiz g'arq bo'lib ketyapti! degani edi. Ammo ukalari suvga g'arq bo'lmadi, balki bir parcha lataga o'xshab suvgada yep- yengil, bemalol suzdi, keng va yalpoq oyoqlari bilan suvni yorib olg'a intildi. Tovuqning tovushini eshitib, Dar'ya xola uydan yugurib chiqdi, nima bo'layotganini ko'rib, qichqira boShladi.

Voy, o'la qolay! Men bilmasdan o'rdak tuxumini tovuqqa bostirib qo'ygan ekanman-ku!

Tovuq bo'lsa kuchi boricha hovuzga qarab talpinardi, u bechorani zo'rg'a haydab yuborishdi.

O'RMODA

Aka- singil maktabga ketiShardi. Ular xushmanzara ajoyib o'rmon yonida o'tishlari kerak edi. Ammo yo'l chang, issiq bo'lib, o'rmon soya- salqin edi.

-Bilasanmi! –dedi akasi singlisiga. –maktabga kechikmaymiz, maktab dim, u yerda odam darrov zerikib qoladi. O'rmon hozir juda ajoyib bo'lsa kerak! Qushlarning chug'urlayotganini qara. Olmaxonlarni aytmaysanmi, shoxdan-shoxga sakrashayotgandir. O'sha yoqqa bormaymizmi!

Singlisiga akasining gapi juda ma'qul tuShdi. Bolalar alifbolarini o't orasida taShlab, qo'l ushlangancha qayinlar ostidagi butalar orasiga kirib ketiShdi. O'rmon chindan ham zavqli edi. Qushlar tinmay parillab uchar, chug'urlar, sayrar, olmaxonlar shoxdan-shoxga sakrar, maysa o'tlar orasida hasharotlar yugurishardi. Bolalar eng avval tillaqo'ng'izini ko'rib qolishdi-da,unga.

- Biz bilan o'yna,-deyiShdi.
- Jonim bilan o'ynardim, lekin vaqtim yo'q, o'zimga ovqat topishim kerak, -deydi tillaqo'ng'iz.

- Biz bilan o'yna, -deydiShdi bolalar sariq, sertuk asalariga.
- Sizlar bilan o'ynaShga vaqtim yo'q, -dedi asallari, -men asal yig'ishim kerak.
- Sen-chi, senbiz bilan bir oz o'ynay olasanmi? –deb so'raShdi bolalar chumolidan.

Ammo ularning gapini tinglashga chumolining vaqti yo'q edi. U o'ziga uchta keladigan xasni sudrab, o'zining antiqa uyasini qurishga oshiqardi.

Bolalar olmaxondan o'zlari bilan bir oz o'ynashni iltimos qilmoqchi bo'lishgan, olmaxon momiq dumini likillatib, qishga yong'oq g'amlashi kerakligini aytdi.

Kaptar bo'lsa – mening ham vaqtim yo'q. Kichkintoy bolalarimga in qurishim kerak- dedi.

Kul rang quyoncha esa yuzini yuvishsh uchun ariq bo'yiga shoshilardi. Bolalar bilan o'ynaShga maymunjon gulining ham vaqti yo'q edi. U ob-havoning yaxshiligidan foydalanib, o'zining serSharbat mevasini mo'jallangan vaqtga tayyor qiliShga urinardi. Hamma o'z iShi bilan band, hech kim ular bilan o'ynaShni istamasdi. Bolalar zerikib qoliShdi. SHundan keyin ular shildirab, toshda-toshga sakrab oqayotgan ariq oliga yugarib boShrishda –da.

- Sening hech qanday ishning yo'q –ku, -deyiShdi suvga, - bizi bilan o'ynay qol.
- Nega qiladigan iShim bo'lmas ekan? –dedi achchiqlanib suv.
- Eh, dangsalar –ey! Ko'ryapsizmi? Men kecha-yu kunduz tinmay ishlalapyaman –ku. Axir odamlarning, jonivorlarning chanqog'ini bosayotgan kir yuvayotgan, tegirmon aylantirayogan, qayiq'larni ko'sayotgan, kir yuvayotgan, tegirmon aylantirayotgan, qayiq'larni ko'tarib yurgan, o't o'chirgan ham men emasmi? Sanayversam ishimning ko'pligidan boShim aylanib ketadi! –dedi-da, shildirab oqishda davom etdi.

Bolalar batarroq zerikiShdi. Ular, yaxshisi, avval maktabga borib, keyin qaytayotganimizda o'rmonga kirsak bo'lar ekan, deb o'ylashdi. Lekin xuddi shu payt bola yashil novdaga qo'nib turgan kichinagina, chiroyli tog' chumchug'ini ko'rib qoldi. Ko'rinishdan u juda xotirjam, bekorchilikdan quvnoq bir kuyini xirgoyi qilib hushtak chalardi.

Ey, quvnoq qo'shiqchi! –deb chaqirdi bola uni. Aftidan qiladigan ishning yo'qqa o'xshaydi, biz bilan o'ynay qol!

Nima , nima? –hafa bo'lib chirqiqiladi tog' chumchug'i, -qanaqasiga qiladigan ishim bo'lmas ekan?. Axir men bolalarimni boqish uchun kun bo'yi chivin- pashsha tutdim –ku!. Juda charchadim. Qanotlarimni ko'tarishga holim yo'q, shunda hamda qo'shiq aytib, shirin-shakar bolalarimni allalayapman. Xo'sh, kichik dagasalar, bugun o'zingiz nima ish qildigiz, buning ustiga o'rmonda tentirab, boshqalarning ishga halaqit berib yuribsiz. Yaxshisi, sizni qaerga yuborishgan bo'lishsa, o'sha yerga boringlar. Dam olish, o'ynash o'z vazifasini yaxshi bajargan kiShigagina yarashadi. Bu hamma vaqt yondingizda bo'lsin.

Bolalar uyalib maktabga jo'nashdi, kech kelishgan bo'lsa ham, yashi o'qishdi.

2-sinf o'quvchilari uchun

LOLAQIZG'ALDOQ

Zulfiya she'rlari

Ona turgan xonaga
Qizi kirdi yugurib,
Go'yo sig'may olamga
Dedi Shoshib-ko'pirib

- Oyi, qaday chiroyli
Hurriyatning lolasi.
Chiqib tersak maylimi,
Urishmasmi onasi?

-Oyijonim tez yuring,
Ko'rsataman qiziq gul.
Hurriyatning tomini
Lola qopbdi butkul.

-Bilmayman, jonim qizim.
Onasidan so'ranglar.
Ruxsat bersa chiqing-u,
Ko'zingizga qaranglar!

Hali unday gullarni
Ko'rmagansiz hech qayda.
Hatto yo'q kitobdagi
Quyvon kevgan to'qayda.

Qizcha xuddi chittakday
Sakrab ketdi shu zamon.
Dam o'tmayin ikki qiz
Tomda urishdi javlon.

Totib ona qo'lidan
Uydan chiqdi yugurib.
Tomda boqdi suq bilan

Ayvon labida turib.

Qizlar yuziday qizil
O'sha tomning chechagi.
O'tlar tebrandi yengil
Tegib o'tsa etagi.

Lola kabi ochildi
Tomda ikki qizaloq.
Tiz baravar o'tlardan
Terdi lolaqizg'aldoq

HAFTA

(Asqad Muxtor)

“Hafta” degani –ettidir,
Oila yettimiz.
Oyiga, yilga nisbatan
Biz, albatta, mittimiz.
Ammo lekin biz bo'lmasak,
Na oy bor-u, na yil-bor.
Bizdagi mazmun bilan
Odamning umri dilbar.
Ettovlonmiz, yetti o'g'lon,
Etti og'ayni botir
Ana, birinchi bo'lib
Yakshanba kelayotr.

Yakshanba

“Yak” degani –bir degani,
To'nng'ichiman haftaning
Yak bo'lsam ham emas,
Bir jangovar safdaman.
Vazifam bor –dam beraman
Mehnat qilgan kishigi
Har haftasin bezayman,
Yakun yasab ishga.
Mehnatkashning vijodoni pok,
Rohat qilib uxlagan.
Bolalarni ergashtirib,
Yoru do'stin yo'qlagan.
Dars ham yo'q, ish ham yo'q,
O'yin –kulgi, tomoSha.
To'y ovozi –karnay –surnay,
Devor ovozi- karnay –surnay,
Devor osha, tom osha.

Katta yo'lning gulshaniman,
Orom oling gulshanda .
Har haftada mehmonimisiz,
Mening otim yakshanba.
Ettovlonmiz, yetti o'g'lon,
Etti og'ayni botir.
Ana, ikkinchi bo'lib
Dushanba kelayotir.

Dushanba

“Du” degan ikkidir.
Mehnat bizning zotimiz.
Yakshanbaning ukasiman,
KofiyadoSh otimiz.
Yoqtirmaydi meni yalqov,
Og'ir, deb urishadi.
Ammo bugun ish yurishsa,
Bir xafta yurishshadi
Hordiqdan so'ng lanjlikni
G'ayrat bilan yenginglar.
Yangi kuchu havas bilan
Bel bog'laydi ming-minglar.
Mehnat mendan start olar,
Men ochaman haftani.
Mehnat esa yurgizadi,
Zavod, dizel, shaxtani.
Meni tanir bolalar ham
Tongim sabolaridan,
Maktabdagi qo'ng'iroqning
Kumush sadolaridan,
Ettovlonmiz, yetti o'g'lon,
Etti og'ayni botir.
Ana, uchinchi bo'lib
Seshanba kelayotir.

Seshanba

“Se” degan –uch degani.
Hafta uchga kiradi.
Hamma joyda, hamma joyda
Mehnat kuchga kiradi.
Ajrab turgan joyim yo'q,
Oddiygina bir kunman.
Ammo shonu shuhratdan
Toj kiyishim mumkin man.
Bilasizmi, Gagarin
SeShanba kun uchgandi.
Sirdaryoning Farhod GESsi
Shu kun ishga tushganda

Tasodifmi? Bo'lsa bordir.
Shunisi qonuniyki,
Bir haftda nima bo'lsa,
Beshdan biri- meniki.
Ha, oddiyma, ko'p qatori,
Hech, "men -buyukman" demasman.
Ammo ko'rib turibsizki,
Unda oddiy emasman.
Ettovlonmiz, yetti o'g'lon,
Etti og'ayni botir.
Ana, to'rtinchi bo'lib
Chorshanba kelayotir.

Chorshanba

"Chor" deganni –to'rtinchi degani,
To'rtinchiman safda men.
Yarim yo'lda yetdingiz,
Qoq beliman haftaning.
Bir-birining davomi-da,
Bel bo'lmasa bosh qani?
Men kattaman demagin hech,
Kamsitmagin boshqani.
Biz shundaqa –bir butun,
Bamisoli zanjirmiz.
Birimizda ish unmasa,
Hammamiz ham ranjiymiz.
Xuddi shunday shaharlar ham,
Xuddi shunday –odamlar,
Sinfdagi do'stlaringiz,
zavoddagi dadamlar
hammasi ham bir-birisiz
bosolmaydi ilgari.

Bog'liq ekan bir-biriga
hayot –mamot singari.
Ettovlonmiz, yetti o'g'lon,
Etti og'ayni botir.
Ana, beshinchi bo'lib
Payshanba kelayotir.

Payshanba

"Pay" degani –"panj" danqiqqan.
Panj, ya'ni beshinchi.
Otim g'alat, ammo birov
Meni no'noq desin-chi!
Yoqtirmayman –kimda –kim
Meni bekor oldirsa.
Yoki mening iShimni
Juda kunga qoldirsa.

Bo'lsa deyman ma'noli
Minutlarim barchasi,
Nega desang men ham sening
Umrining bir parchasi.
Qalbingni men ham jindak,
Boyitamangalimda.
Zimdan hisob so'rayman
Aylanib kelganimda.
Sizning kami –ko'stingizdir-
Bizning kami –ko'stimiz.
Bizning yutuq –sizning yutuq,
Biz odamning do'stimiz.
Ettovlonmiz, yetti o'g'lon,
Etti og'ayni botir.
Ana, oltinchi bo'lib
Juma ham kelayotir.

Juma

Olti-asli "Shash"bo'ladi.
Qofiyasiz yuraman.
"Shash"- Shanbani aytish qiyin,
SHuning uchun Jumaman.
Juma degan bola ham bor.
Juma kuni tug'ilgan.
Uginamas, hammangiz
Mehrim bilan yo'g'rilgan.
Har biringga baxt keltiray,
Ilhom solay dilingga.
Kunlar qadriga yeting,
Ixlos qo'ying bilimga.
Kunlar to'plab misqollab
Bayramlar Shodligini.
Kunlar bunyo etadi.
Umrining obodligini.
Umr o'zi kunlardandir,
Shu kunlaring biriman,
Men oxirgi mehnat kuni
Haftaning taqdiriman.
Ettovlonmiz, yetti o'g'lon,
Etti og'ayni botir.
Ana, yettinchi bo'lib
Shanbavoy kelayotir.

Shanba.

Yak, du, se, chor, panj, ... emas,
Men shunchaki shanbaman.
Ish haftasi bekildi,
Men misoli , tambaman.

Ammo maktablar ochiq
Dam kuni deb ovunmang.
Ishchi ko'proq dam olsin deb,
Yakshanbaga muovinman.
Teatrga, ovga borsin,
Ko'proq o'qisin kitob
Sog'lig'ina sadad bo'lsin
Sof havo, suvu oftob,
Shunday hurmatga loyiq
Bizning elda iShchilar,
Butun boylikni yaratgan
Eng tabarruk kishilar.
Yaqinda shunday bo'ldim,
Hali yoShman bu iShda.
Hamma mendan sevinchda.
Shunday qilib, biz mehnatda,
Etti og'ayni botir.
Haftalar kelayotir!
"Hafta" degani –ettidir,
Oilaetimiz.
Oyiga, yilga nisbatan
Biz, albatta, mittimiz.
Ammo lekin biz bo'lmasak,
Na oy bor-u, na yil-bor.
Bizdagi mazmun bilan
Odamning umri dilbar

VATAN

(Hamid Olimjon)

Shodligim ko'kka sig'mas,
Bitmas baxtim bor manim.
Meni baxtiyor qilgan,
Shu yengilmas Vatanim.

Yovning o'qi hech qachon
Askaridan o'tmaydi.
Nishon olsa osmonni
Samolyotga yetmaydi.
Shuning uchun qiShloqlar
Kun kechirar erkin, tinch.
Shaharlarning qalbida
Kecha va kunduz seovich.

LOLA

Lola bo'g'chaga chiqib
Kechga qadar gul terdi.
Etak-etak to'rladi.
Har kungidan to'l terdi.
Sochiqa gul bog'ladi,

Chekkasiga taqdi gul.
Elkalardan taShlab,
gulga ko'mildi butkul.
So'ngra uyga keldi- yu,
Birpas yotib dam oldi.
Kiprigi yumildi-da,
Gul kabi uxlar qoldi.

3-sinflar uchun

DUYUMCHAXON (*Lev Nikolayevich Tolstoy*)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan bir xotin bo'lgan ekan, uning sira bolasi yo'q ekan. Xotin kichkina bir bola bo'lsa koshki, deb orzu qilar ekan. Bir kun u jodugar kapir oldiga borib.

- Men bir qizim bo'lsa deb orzu qilaman qaerdan olsam ekan, ayitib berolmaysanmi? –dedi.

- Nega aytmayman? –dedi jodugar. – Mana bu arpaning doni ol. U don emas. Sen buni gul tuvagiga ekib qo'y. Nima bo'lishini keyin ko'rasan.

-Rahmat senga !-dedi xotin, u jodugar kampirga o'n ikki chaqa berdi.

Keyin xotin uyga borib, arpa donini gul tuvakka ekib qo'ydi.

Donni ekishi bilanoq, u daohol bo'y berdi, keyin undan xuddi lola gulday kattakon ajoyib bir gul o'sib chiqdi. Ammo gulning yaproqlari xuddi ochilmagan g'uncha kabi bir-biriga zich qisilagan edi.

- Munchayam ko'rkam gul ! –dedi xotin va uning chiroyli chipor yaproqlarini o'pdi. Xotin yaproqlarni o'parkan, g'unchaning ichida bir narsa qisirladi, keyin gul ochilib ketdi. Bu xuddi g'unchasi edi, ammo gulning yashil kosachasida bir qizcha o'tirardi. U juda kichkina bo'lib, bo'yi bir dyuym kelar edi. SHuning uchun ham unga Dyuumchaxon deb ot qo'ydilar.

Yong'oq po'chog'i uning beshigi, binafshalar to'shagi, gulning yaproqlari esa ko'rpachasi edi. U kechsi po'choq ichida uxlar, kunduzlari esa stol ustida o'ynardi. Xotin tarelkaga suv solib, stol ustiga qo'ydi, tarelkaning atrofiga esa gullarni o'rnatdi, gullarning uzun tanalari suv cho'milardi. Kikina Dyuumchaxon uchun tararelkadagi suv –butun boshli qo'l edi. Dyuumchaxon uchun tarrelkadagi suv –butun boshli qo'l edi. Dyuumchaxon lola yaprog'i ustida o'tirib, qo'l ichida qayiqda suzgandek suzardi. Eshkaklar o'rnida uning ikkita oq qili bor edi. Dyuumchaxon o'zining ajoyib qayiqchasida kun bo'yi sayr etar, tarelkaning bir tomonidan ikkinchi tomoniga suzib o'tar va ashulalar aytardi. Uning ovoziday mayin ovozchani hech kim hech qachon eshitgan emas.

Bir kun kechasi Dyuumchaxon o'zining beshigida uxlab yotganda derazadan uyga shilimshiq, badbashara baqa kirdi. U to'ppa- to'g'ri stolga sakrab chiqdi-da, gul yashrog'i ichiga, Dyuumchaxon uxlab yotgan po'choqqa qaradi.

- O'g'ilchamga zap xotinch bo'ladi-da! – dedi baqa va qizcha yotgan yong'oq po'chog'ini derazadan boqqa qarab irg'itdi.

Bog'dan oqib o'tadigan anhor bo'yida bir botqoqlik bor edi.

Qari baqa o'g'li bilan xuddi shu botqoqlikda yashardi. O'g'li ham, o'zining qari onasi singari, shilimshiq va badbashara edi.

Yong'oq po'chog'i ichidagi kichkina qizchani ko'rib, u.

- Sekinroq baqir, uyg'otib qo'yasan, keyin qochib ketadi, - dedi qari baqa. – Axir u oqqushning paridan ham yengil. Uni anhor o'rtasidagi sariq gulning katta yaprog'i ustiga o'tqazib qo'yamiz, shunda u hech qayoqqa qochib ketolmaydi. Men bo'lsam baqa yaprog'i ichiga ikkilangizga loyiq shinam uycha qurib beraman.

Anhorra juda ko'p sariq gullar o'sardi. Ularning kattakon yashil barglari suvda oqib yurardi. Eng katta barg boshqalaridan ko'ra qirg'oqdan nariroqda edi. Baqa yong'oq po'chog'i ichida tinchgina uxlab yotgan qizchani ko'tarib oldi-da, shu barg ustiga olib borib qo'ydi.

Ertalab Dyuyunchaxon uyg'onib qarasa, sariq gul bargining ustida yotipti, atrofini suv o'rab olgan, qirg'oq bo'lsa juda uzoqda Dyuyunchaxon qo'rqib ketganidan yig'ilab yubordi.

Kari baqa bo'lsa, o'z yaprog'ida o'tirib, o'zining uyini qamish va sariq gullar bilan bezardi. –u, yosh qalliqni rozi qilmoqchi edi. Hamma narsa tayyor bo'lgandan so'ng, baqa o'zining jirkanch o'g'ilchasi bilan qizchani karavotini ko'tarib, chimildiqqa qo'yish uchun Dyuyunchaxon o'tirgan bargga suzib bordi. Qari baqa qiz oldiga kelgach, suvga yalpayib o'tirdi-da.

-Mana, mening o'g'ilcham! U-sening ering bo'ladi.. ikkilangiz baqa yaprog'imizda shod-xurram kun kechirasiz, -dedi.

-Qurr, qurr, vaq-vaq! –deya oldi o'g'ilcha.

Baqalar po'choqni ko'tarib, suzib ketdilar. Dyuyunchaxon bo'lsa yashil yaprog ustida yolg'iz qolib, achchiq-achchiq yig'ladi –u, jirkanch baqa bilan yashashni va uning xunuk o'g'liga tegishni aslo xoxlamas edi.

Suv ostida suzib yurgan baliqlar baqani va uning o'g'lini ko'rib turdilar va Dyuyunchaxonga ayganlarini ham eshitdilar.

Baliqchalar Dyuyunchaxonni ko'rishlari bilanoq shunday kelishgan qizchani baqalar bilan kun kechirishiga juda achindilar. Yo'q bunday bo'lmaydi! Anhordagi hamma baliqchalar Dyuyunchaxon o'tirgan sariq gulning bargiga suzib keldilar –da, bargning poyasini kemirib tashladilar.

Shundan so'ng sariq gul bargi suv ustida oqib ketdi. Suv tez oqar edi., qizcha o'tirgan barg ham juda tez oqdi. Endi baqa Dyuyunchaxonni quvib yettolmas edi. Dyuyunchaxon bo'lsa hadeb oqib borardi, novdalarda qo'nib o'tigan kichkina qushchalar unga qarar va sayrar.

- Munchayam yaxshi jajji qizcha-ya! Dyuyunchaxonning atrofida uchib yurdi, eng keyin u barg ustiga kelib qo'ndi- kichkina qizcha unga judayam eng keyin u barg ustiga kelib qo'ndi –kichkina qizcha unga judayam yoqib qolgan edi. SHunda Dyuyunchaxon o'zining belbog'ini yechib, bir uchini kapalak tashladi, ikkinchi uchini o'zining bargiga, bog'lab qo'yidi, - barg yanada tez suzib ketdi. Birdan shu yerdan tilla qo'ng'iz uchib ketdi. U Dyuyunchaxonni ko'rib qolib, uni ushlab oldida, daraxtlar olib chiqib ketdi. Sariq gulning yashil bargi bilan kapalakam nariga oqib ketdi, chunki u bog'lanib qo'yilgan bo'lib, qutulishning iloji yo'q edi. Qo'ng'iz Dyuyunchaxonni ushlab olib daraxt tepasiga ko'tarib chiqqanida, bechora qizning yuragi chiqib ketayozdi. Lekin bu hol tilla qo'ng'izning parvoyiga ham kelmadi. Udarxtning uchiga qo'ndi, Dyuyunchaxonni shirin gul shirasi bilan to'ydirdi va Dyuyunchaxonga sen tilla qo'ng'izchaga sirayam o'xshamasang-da, menga juda yoqib qolding, dedi. Keyin ularniki shu daraxda yashaydigan boshqa tilla qo'ng'izlar mehmon bo'lib kelishdi. Qo'ng'iz

qizlar Dyuumchaxonga boshdan –oyoq qarar va muylovlarini qisib –qisib qo'yadilar.

- Uning oyoqchasiga atigi ikkita –ku ! –dedi ulardan biri.
- Uning mo'ylovlari ham yo'q ekan!-dedi boshqasi.
- U munchayam nozik –a! U xuddi odamning o'zi ! dedilar
- Uchinchilari eng oxir.

- U juda xunuk! –degan qarorga kelishdi hamma qo'ng'izlar. SHu chog' Dyuumchaxonni keltirgan tilla qo'ng'izga ham u juda xunuk bo'lib ko'rindi, uendi qizchani o'z yonida saqlab turishni istamadi. Istagan yerga borsin, -dedi-da qizni pastga olib tushib,oq gulga o'tqizib qo'ydi.

Dyuumchaxon gul ustida o'tirb, xo'ng –xo'ng yig'iladi, unga o'zining xunukliga alam qildi. Uni hatto tilla qo'ng'izlar ham haydab yubordilar-a.

Butun yoz Dyuumchaxon o'rmonda yakkayu yolg'iz yashadi. U o'ziga o'tdan beshik yasadi, beshikni yomg'ir ivitmasin uchun bir katta otquloq bargining tagiga olib borib qo'ydi. U shirin gul asalini yer va har kunni ertalab barglar ustiga tushgan shudringdan ichardi. SHunday qilib yoz o'tdi, kuz kelib yetdi. Uzoq va qahraton qish yaqinlashardi. Hamma qushlar uchib ketdilar, gullar to'kildilar tagida Dyuumchaxon yashab turgan kattakon otquloq bo'lsa sarg'aydi., keyin qurib, qovjirab xazon bo'lib ketdi. Dyuumchaxon sovuqdan qaltirardi uning kiyimlari yirtilib, dabdalasi chiqib ketgan edi, o'zi bo'lsa judayam kichkina,judayam nozik qanday qilib sovuq emasini axir. Qor yog'a boshladi. Bir kurak qor bizga qanday ko'rinsa, Dyuumchaxonga har bir parchasi unday bo'lib ko'rinardi. Biz axir kattamiz u bechoraning atiga bir dyuym bo'yi bor. U quruq yaproqqa o'ralib ko'rdi,hech istmadi. Dyuumchaxon kuz yaprog'i kabi qaltirardi. SHunday keyin Dyuumchaxon o'rmondan ketishga va o'ziga qishlik uy topishga qaror qildi. Dyuumchaxon yashayotgan o'rmon orqasiga katta dala bor edi. Daladan allaqachonlar g'alla o'rib olingan, faqat katta-katta quruqpoyalar muzlagan yerdan chiqib turardi. Dala o'rmonga qaragan da yanayam sovuqroq edi, bechora qizcha butunlay sovuqqa qotdi. SHundan keyin Dyuumchaxon dala sichqonining uyasiga keldi. SHundang keyin Dyuumchaxon dala sichqonining yasiga kelid. Uyaga kiradigan yo'l quruq, poyachalar va cho'pchalar bilan yopilgan edi. Dala sichqonnining uyi issiq, o'zi kam- ko'rstsiz yashardi, uning oshxona va ombori don bilan to'lib toshgan edi. Dyuumchaxon gadoyday uning ostonasi uning ostonasi tagiga kelib, bir bo'lak arpa donasini tilandi. U ikki kundan beri och edi.

- Oh, bechora qiz, -dedi dala sichqonni (rostini aytganda, u mehribon kampir edi)- qani, bu yoqqakel men bilan ovqatlana, ichingga issiq kirsin. Dyuumchaxon sichqon uyasiga tushdi, isindi, ovqatlandi, kmpirga qizcha juda yoqib qoldi. Kampir qizchaga. Menikida qishlab qola qol. Men seni boqaman, sen bo'lsang uyimni yaxshilab yig'ishtir va menga ertaklar so'ylab ber, men ertakni juda yaxshi ko'raman, -dedi. Dyuumchaxon qari siichqon nima buyursa, hammasini bajardi. U sichqonning issiqqina inida juda yaxshi kun kechria boshladi. Bir kun dala sichqoni. Yaqinda biznikiga mehmonlar kelishadi, -dedi, - qo'shnim har haftada bir marta meni ko'rgan keladi. U juda boy, u mendan ko'ra yaxshiroq yashaydi. Uning yer ustida katta uyi bor. U ajoyib qora baxmal po'stin kiyib yuradi. Qizcha, sen o'shanga erga tega qol! U seni xor qilmaydi. Faqat bitta

aybi bor, u butunlay ko'r va seni xor qilmaydi. Faqat bitta aybi bor, ubutunlay ko'r va seni ko'rmaydi. Sen bo'lsang unga bilgan eng yaxshi ertaklarini so'zlab berasan. Ammo Dyuumchaxon hamsoya sichqonga erga tegishni mutlqo istamasdi. Ko'rsichqonga ham erga chiqsinmi ahir! Tez kunda ko'rsiqon chindan ham dala sichqonninikiga mehmon bo'lib keldi. U juda basavlat va ilimli, po'stini baxmalidan, o'zi judayam chiroyli ko'rinardi. Uning uyi dal sichqonining uyichasidan yigirma marta katta edi, u yerda juda ko'p katta uylar va uzun yo'laklar bor edi. Ammo u yerga hech qachon quyosh tushmasdi. Ko'rsiqchqon qo'yoshni yomon ko'rar, gullarni yoqtirmas edi, u axir bularni hech qachon ko'rgan emas-da. Dyuumchaxonni savlatli mehmon olida ashula aytishga majbub qildilar, qizcha ikkita ashula aytib berdi, shunday yaxshi aytdik, ko'rsichqon uni shu ondayoq yaxshi ko'rib qoldi. Ammo u bir og'iz ham so'z aytmadi, shunday sipoq, ulug'sifat janob edi. Keyin ko'rsichqon o'z uyidan dal sichqonining inigacha yer ostidan uzun yo'l qazidi va qari sichqon bilan Dyuumchaxonni shu yer osti yo'lidan sayr qilishga taklif qildi. Ko'rsichqon yaltiroq qo'ng'izni tishlab olgan edi- qorong'ida yaltiroq qo'ng'iz sham yorug'ini berardi. ko'rsichqon uzun va keng yo'lakni yoritib keta berdi, u yarim yo'lda to'xtab. Bu yerda allaqanday bir qush yotibdi, lekin qo'rqmay kelaberinglar, u o'lik –dedi. Ko'rsichqon o'zining uzun burni bilan shipdan teshik ochdi, kunduzgi nur shu'lasini yer osti yo'lga tushdi. SHunda Dyuumchaxon o'liq qaldirg'ochni ko'rdi, uning pati bor, tumushug'i jajaigini edi, ehtimol yaqinda, qishning boshlanishda o'lib qolib ko'rsichqonning iniga yiqilib tushgan bo'lsa ajab emas.

O'lik qushning qanotlari tanasiga qattiq siqlgan, oyoqchalari va boshi qanotlari yashiringan edi. Bechora qaldirg'och, ehtimol, sovuqdan o'lgandir. Dyuumchaxon unga juda achindi-u qushchalarni juda yaxshi ko'rardi, qaldirg'ochlar unga butun yoz o'zlarining ajoyib ashulalarini aytib bergan edilar. Ammo ko'rsichqon kalta paejalari bilan qaldirg'ochni turtib. Endilikda vijirlamaysan! Men mana shunday kichkina qushcha bo'lib tug'ilishni aslo xohlamasdim. Ular butun yoz vijirlab kunlarini o'tkazadilar-da, qish kirganda keyin sovuq va ochlikdan o'ladilar. Mening bolalarim uchun qish siri xavfli bo'lmaydi. Ha –ya, -dedi dala sichqon, -chiyillashdan nima foyda? Ashula bilan qorning to'ymaydi, chiyillashdan qishda isinmaysan! Dyuumchaxon bo'lsa gapirmay turardi, ammo ko'rsichqon bilan sichqon qushcha orqalarini o'giranlarida, Dyuumchaxon qaldirg'och egildi-da, patlarini silib, yumuq ko'zlaridan o'pdi.

Balki bu qish yozda juda ajoyib sayragan o'sha qaldirg'ochdir, deb o'yladi qizcha. "Sen menga qancha shodliklar keltirgansan, aziz qushcha !" So'ngra ko'rsichqon shipdagi teshikni berkitib qo'yib, sichqon kampir bilan Dyuumchaxonni uylariga kuzatib qo'ydi. Kechasi Dyuumchaxon uxlay olmadi. U o'rnidan turdi, quruq xascho'plardan katta gilam to'qidi. Uning so'ng Dyuumchaxon sichqon inidan momiqdan yumshoq o't keltirib, o'lik qushcha uchun ko'rpacha tikdi.

- Xayr! Daraxtlar yam-yashil bo'lib, qo'yosh iliq nur sochganda, sen menga qo'rqib ketdi. Qaldirg'ochning ko'kragida allanima dukillar edi. Bu dku-duk urayoigan qushchaning yuragi edi. Qushcha hali tirik faqat sovuqdan qotgan ekan, endi bo'lsa u isinib tirildi. Dyuumchaxon qo'qqanidan qaltirardi- ushoq qiz oldida qush bahaybat katta narsa edi. SHunday bo'lsa –da, Dyuumchaxon qaldirg'ochni

gilamchaga yaxshiroq o'radi, undan so'ng chopib borib, o'zi o'ralib yotadigan yalpiz bargini keltirdi, u bilan qushchaning boshini yopib qo'ydi. Ertasi kun kechasi Dyuumchaxon imi –jimida yana qushchaning oldiga keldi. Qaldirog' tirilgan, lekin zaif edi, u ko'zlarini zo'r –bazo'r ochib qizcha qaradi. Dyuumchaxon qo'lida bir bo'lak yaltiroq chshp ushlab, uning oldida turardi. CHunki uning bundan boshqa chirog'i yo'q edi.

- Rahmat senga, sevimlm ushoq!-dedi betob qaldirg'och. Men juda yaxshi isinib oldim! Tezda butunlay tuzalib ketman-da, yana osmonga uchaman.

- Oh –dedi Dyuumchaxon hozir juda sovuq, qor yog'yapti! Yaxshisi, o'zingning issiq ko'rpachangda qola ber, men bo'lsam seni parvarish qilib turaman.

Dyuumchaxon qaldirg'ochga gul bargida suv va bir necha arpa donini keltirdi. Qaldirg'och suvni ichdi, qornini to'ydirdi, undan keyin qizchaga o'zini tikanak novdasiga urib, qanotini yaralaganini va boshqa qa qaldirg'ochlar bilan birga issiq tomonlarga uchib keta olmaganini so'ylab berdi. Qish keldi, dedi u - juda sovuq bo'lib qoldi men yerga yiqilib tushdim. Qaldirg'ochboshqa hech nimani eslay olmasdi va bu yerga yer ostiga qanday qilib tushib qolganini ham bilmasdi. Qaldirg'och butun qishni yer ostida o'tkazdi. Dyuumchaxon uni parvarish qildi. Na ko'rsichqon va dla sichqoni buni sira payqashmadi. Ular axir, qushchalarni juda yomon ko'radilar-da.

Bahor kelib, quyosh nur socha boshlaganda, Dyuumchaxon qaldirg'och uchib keta olsin uchun ko'rsichqonning shipdagi teshigini ochdi. Qaldirg'och qizchadan Men bilan uchib ketishni istamaysanmi-deb so'radi, -istasang, mening bo'ynimga o'tir, ikkimiz yashil o'rmonga uchib ketamiz. –Ammo Dyuumchaxonning qari dala sichqonina rahmi keldi, u o'zisiz kampirning juda eerikib qolishini bilardi.

- Yo'q, sen bilan uchib ketolmayman, -dedi Dyuumchaxon.

- Xayr, xayr sevimli qizcha! –deb qaldirg'och pichirlaganicha keng havoga uchib ketdi. Dyuumchaxon uning orqasidan qarab qoldi. Ko'zlaridan yosh oqib ketdt. U qushchani juda sevib qolgan edi.

- Vi-jir –vi-jir! –deb qichqirdi qaldirg'och, keyin yashil o'rmon ichiga kirib ko'zdan yo'qoldi. Dyuumchaxon esa sichqon inida qoldi. U shundan boshlab yomon yashay boshladi. Unga quyoshga ochiq havoga chiqishga butunlayruxsat bermasdilar, dala sichqonnining ini atrofidagi dalada baland, yo'g'on boshqli o'simliklar o'sardi., bular Dyuumchaxonni unashib ketdi, bular Dyuumchaxonga bepoyon o'rmon bo'lib ko'rinardi.

Bir kun qari ko'rsichqon kelib Dyuumchaxonni unashib ketdi. Endi senga kiyim –kechaklar tayyorlash kerak, -dedi sichqon. Sen olijanob kishiga erga tegasan, sening hamma narsang mo'l-ko'l bo'lishi kerak.

Dyuumchaxonga kun bo'yi ip yigirishga to'g'ri keldi. Sichqon kampir to'rt o'rgimchakni yolladi, ular kechayu kunduz sichqon inida o'tirib har xil mato to'qidilar. Semiz ko'rsichqon bo'lsa har kech mehmon bo'lib kelardi. U tezda yoz tuguydi, qo'yosh yerni qizdirmaydi, yer yana yumshoq va muloyim bo'lib qoladi, deb mahmadanalik qilardi. Ana shu vaqt ular to'y qilajaklar. SHo'rlik Dyuumchaxon hamon qayg'urib yig'lardi. Usemiz ko'rsichqonga tegishni sira istamasdi. Har kun ertalab quyosh chiqayoiganda va har kech quyosh botayotganda Dyuumchaxon sichqon inining og'ziga chiqardi. Ba'zan shamol boshloqlar silkitib,

ikkiga ajratar, shunda qizcha zilol osmonning bir parchasini ko'rishga muyasar bo'lardi. "Qanday yorug', qanday yaxshi bu erkin yer!" –deb o'ylardi. Dyuumchaxonva hamon qaldirg'ochni eslardi. U qushcha bilan uchrashishning juda-juda orzu qilardi, ammo qaldirg'och hech yerda ko'rinmasdi. U uzoqdagi yashil daraxtlar ichida uchib yurgan bo'lsa kerak.

Kuz kirdi. Dyuumchaxonning kiyim-kechaklari tayyor bo'ldi. To'rt haftadankeyin to'ying bo'ladi –dedi dala sichqonni Dyuumchaxonga. Bu eshitib Dyuumchaxon yig'lab yubordi vaxunuk ko'rsichqonga erga tegishni hohlamasligini aytdi.

Bo'lmagan gap –dedi sichqon kampir. G'ayirlik qilm, yo'qsa men seni oq tishlarim bilan g'ajib tashlayman. Ko'rsichqon nechun senga er bo'lmasin. Unikiday qora baxmal po'stin qirolichada ham yo'q. Uning omborlari ham quruq emas. Bunaqa erga tegayotganing uchun shukur qilgin. Nihoyat to'y kuni yetdi, ko'rsichqon qalig'ini olib ketgani keldi. Endi Dyuumchaxon ko'rsichqon -ning iniga ko'chib ketish, chuqur yer tagida yashashi kerak. U hech qachon quyoshni ko'rmadi, ko'rsichqon unga indan chiqishga aslo ruxsat bermaydi. Bechora Dyuumchaxoga nurli quyosh bilan umrbod xayrlashish juda qiyin bo'ladi. Dyuumchaxon quyosh diydoriga eng so'nggi marta qarash uchun inidan chiqdi. Daladagi g'alla o'rib olingan edi, yeodan yana yalang'och, qurilgan plyalar chiqib turardi. Qizcha sichqon inidan nariroq bordi-da, quyoshga qo'lini uzatib.

-xayr, quyoshjon, xayr! –dedi.

So'ngra u kichkina qizil gulchani ko'rib, uni quchoqlab oldi va Gulchaxon, agar go'zal qaldirg'ochni ko'rsang, mendan salom ayt! –dedi.

Birdan uning boshi ustida

- Vi-jir-vi-jir ! -degan ovoz eshitildi. Dyuumchaxon tepasiga qaragan edi, yonidan uchib o'tayotgan qaldirg'ochga ko'zi tushdi. Qaldirg'och ham qizchani ko'rdi va shodlandi. Dyuumchaxonbo'lsa yig'lab yubordi va qaldirg'ochga, semiz ko'rsichqonga erga tegishini va hech qachon quyosh tushmaydigan chuqur yer ostida u bilan yashashni istamaganligini so'zlab berdi.

- ovuq qish tushyotir, dedi qaldirg'och, men uzoqlarga issiq o'lkalarga uchib ketaman. Men bilan uchib ketishni istaysanmi? Ustimga min, -faqat o'zingni kamar bilan mahkam bog'lab ol, ikkimiz jirkanch ko'rsichqon olidan uchib ketamiz. Biz quyosh ravshanroq yoritayotgan, har doim yoz bo'lgan va ajoyib gullar ochigan tomonga ko'k dengiz orqasiga uchib ketamiz. Men bilan uch, ushoq jonim! . axir, sen meni sovuq chuqurda qotib yotganimda o'limdan qutqargansan.

Ha , ha sen bilan uchib ketaman ! –dedi Dyuumchaxon.

U qaldirg'ochning ustiga minib, oyoqchalarini qushchaning dumiga tmon uzatdi-da, o'zini kamar bilan eng katta bir patga bog'ladi. Qaldirg'och o'qday otilib, o'rmonlar, ko'k dengiz va qor bilan qoplangan baland tog'lar usidan ketdi. Bu yerda juda sovuq edi Dyuumchaxon qaldirg'ochning issiq patlari ichiga kirib ketdi va go'zal joylar ustidan uchib o'tayotganda tomosha qilish uchun faqat boshini chiqazdi.

Mana, issiq o'lkaga ham keldilar. Bu yerda quyosh juda ravshan nur sochar, osmon biznikiga qaraganda ikki marta baland, ariq va chorboqlar oldida yashil uzumzorlar ko'rinib turardi. O'rmonlarda limonlar va apel'sinlar o'sardi. SHivit va yalpizning xush islari kelardi., yo'lchalardan quvnoq bolalar chopishib, kattakon chipor

kapalaklarni tutadilar. Ammo qaldirg'och hamon nari uchaverdi. Go'zal ko'l sohilida, jingalak yashil daraxtlar o'rtasida, qaldirg'och oq marmar saroy turardi. Uzun tokining novdalari uning baland ustunlariga chirmashgan, shipda qush uyalari yasog'liq edi. Bularning birida shu qaldirg'och ham yashardi. Mana, shu mening uyim! –dedi qaldirg'och. Sen esang pastdan eng chiroyli gulni tanla, men seni o'sha gul ustiga o'tqazib qo'yaman, sen juda yaxshi umr kechirasan. Dyuumchaxon sevinib ketganidan chapak chalib yuboribdi. Pasda oq marmar tosh parchalri yotardi, bular bir ustunning tepasidn qulab tushib, uch bo'lakka bo'lingan edi. Marmar siniqlari orasida katta oq gullar o'sagan edi. Qaldirg'oya pastga tushib qizchani bir gulning keng yaprog'iga o'tqazdi. Bu qanday mo'jiza! Gulning tovoqchasida oppoqini, yuzlari tip-tiniq kichkina odamcha o'tirmoqda go'yo u shishadan qilingan edi. Yelkalarida yengilgina qanotlar silkinib turar, boshida esa kichkina oltinoj yaltirardi. Bo'yi ham bizning Dyuumchaxondant katta emas edi. Bu odamcha farishtalarning qiroli edi. Qaldirg'ochning gulga uchib borganini ko'rib, farishta judat qo'rqib ketdi. Qaldirg'och oldida u ushoqday edi. Ammo farishta Dyuumchaxonni ko'rib, juda quvnib ketdi, u bunday go'zal qizchani umirda ko'rmagan edi. U ta'zim qilib egilib, uning nomini so'radi.

-Otim Dyuumchaxon, -dedi qizcha.

- Mening xotinim bo'lishni istaysami, Dyuumchaxon?

Dyuumchaxondarhol rozi bo'ldi. SHu chog' hamma g'ullardan farishtalar uchib chiqib Dyuumchaxonga savg'alar keltirdilar. Sovg'alarning eng yaxshisi xuddi ninachinikiga o'xshagan tiniq qanotchalar edi. Qanotchalarini Dyuumchaxonning orqasiga bog'ladilar, shunda Dyuumchaxon ham guldanda –gulga uchib o'tadigan bo'ldi. Xursandchilik hech qayoqqqa sig'mas edi. Qaldirg'och bo'lsa tepada, o'z uyasida o'tirib bilgagncha ashula aytib berdi. Sovuq yurtlarga bahor kelganda esa qaldirg'och vatanga qaytmoqqa hozirlandi.

-xayr, xayr! –deb vijirlandi qaldirg'och va yana issiq o'lkalardan Daniyaga qarab qarab uchib ketdi.

U yerda, ertaklarni juda yaxshi so'ylay oladigan kishining xuddi derazasi tepasida qaldirg'ochning kichkinagina uyachasi bor edi. Qaldirg'och unga Dyuumchaxon tarixini so'ylab berdi, bu hikoyani esa biz o'sha kishidan eshitdik.

UZUMLAR OILASI

(TOLIB YO'LDOSH)

Uzumlar ham bir oila—

Siz va bizday yashar ekan. Urug'-aymoq degandajdn Turi yuzdan oshar ekan. Samarqandning „Yakdona“si, Derlar uzumlar onasi.

Otalari — „Katta qo'rg'on“ Bobomizday ko'pni ko'rgan.

„Hasayni-yu Husayni“lar Emish o'g'illari bular.

Oq-u qizil „Shivirg'oni“

Onalarin dil-u joni.

Suyuk qizlar ekan qarang—
Anor dona, yoquti rang.
„Shakar guli“ — kennoyisi Boshdan oyoq atir isi...
Buvalari — „Buvaki“mish, Liqqo uzum — „, Bibi kumush“.
„Tog‘ uzumi“ — ammalari,
Bir urug‘dan hammalari.
Bari ishqom, so‘ridalar,
Katta bog‘ning to‘ridalar.

YERNING TILI

Bobomlarcha yerning ham Tili bor — so‘zlar emish.
Yer so‘zlasa el-yurtning Baxtini ko‘zlar emish.
Men hech ko‘rgan emasman, Ishonmadim sira ham.
Bobom derlar uqtirib:
— Yer tili bor chinakam.
Hali yer-la so‘zlashish,
Yoshsan, kelmas qo‘lingdan. Yer tilini o‘rgansang,
Chechak unar yo‘lingdan.
Uni ko‘r, derlar bobom!
Havas bilan boqaman.
Poyoni yo‘q bog‘-chaman Mehrin dilda yoqaman. Tap-taqir
cho‘l bo‘lsin, sen Parvarish et, gullaydi.
„Yerni boqsang, boqadi“,
U kuningga yaraydi.
Yerning gapirgani shu, Gapirtirgan biz, bolam.
Mehnat qilsa el barcha,
Gapirar butun olaifl.
—To‘g‘ri, bobojon,—deyman Bellaridan quchoqlab,
Bobomlardek bo‘lishga Men ham o‘zimni chog‘lab.

BUNYODNING JANGI

(«Semurug» poemasidan parcha)

Kun botarda bir yovuz
Dev bor emish yalmogiz.
Odamga dushman emish,
Qon emish unga yemish.
Har musibat, har ofat,
Har bir mudhish. kasofat,
Barcha jabru jafolar,
Hamma dardu balolar
O'shandan kelar emish.
Odamlarni yemirshp
bilan bo'lar emish shod.
Ko'ngli g'amyaaardan ozod.
O'zi balo tog'ining
va ofat bulog'ining
Boshida o'ltirarmish,
Kunu tunu yoz ham qish.
Uni ko'rgan har chaman
Qo'yarkan tuproqqa tan,
U taqilgan har bir gul
To'kilar ekan butkul,
Uni ko'rgan har bir jon
Tez bo'lar ekan xazon.
Daryolar qurir ekan,
Baliqlar chirir ekan,
Undan har kun tabiat
Olar ekan qora xat.

Ikki oyu ikki yil,
Yursang markam bog'lab bel
Makoniga borarsan.
Andomiga borarsan.
O'rtangizda jang bo'lur,
Ikki olam teng bo'lur.
SHuni jangda o'ldirsang,
Hayotini suldirsang,
Qo'ling bilan odamzod
Balodan bo'lsa ozod,
Devni o'ldirib agar,
Qaytib kelsang bezarar,
SHu kuni to'y boshlarmiz,
g'am-g'ussann tashlarmnz».
Bunyod uzoqqa boqdi,
CHarvoqqa, toqqa boqdi.
Nazari cho'lga tushdi,
Huv deya yo'lga tushdi
Ko'zdan yo'qoldi shu on,
Tarqaldi hamma xayron.
Baland tog'lardan oshdi,
Daralarda adashdi,
Vodiylarga ko'z yoshi
To'kib aylandi boshi.
Daryolardan o'tdi ul,
Yana uzoq ketdi ul.
Yurti qoldi uzoqda,
Tushunchasi tuzoqda.
Zo'r bir ishga qo'shib bosh,
O'ziga-o'zi yo'ldosh,
Uzoq cho'llarga yetdi,

Qaynoq ko'llarga yetdi,
Poyoni yo'q keng sahro
O't purkab soldi sado.
Oyog'i ostida qum
Yotadi uyum-uyum.
Biror ko'kat ko'rinmas,
Biror jonvor urinmas
Yoniga tushib quyosh,
Kuyar edi ichu tosh.
Boshdan ter quyar edi.
Oyog'i kuyar edi.
Halqumlari bo'lib qoq,
Toqatlari bo'lib toq,
Qimirlar edi sekin,
Zo'rg'a olar edi tin.
Bir yildan so'ng banogox;
Bir sirdan buldi ogoh:
Poyoni yo'q keng cho'lda,
Qaynagan qumli ko'lda
Bir zur daraxt ko'rindi,
O'shanga ko'zi to'ndi.
Ko'n toliqqan bu odam
Shu tomon qo'ydi qadam.
Daraxt qurigan edi,
Qurib chirigan edi,
Edi minglar yoshida,
Uning baland boshida
Qush uyasi bor edi.
Dam zo'r hamda tor edi.
Daraxtga bir zo'r ilon,
Chirmashib, u oshyon

Sari zahar sochardi,
Ham og'zini ochardi.
CHaqalar chirqirashib,
Faryod qilib tutashib
Onani kutar edi,
Qon, zardob yutar edi.
Bag'rini o'rta bu dod
Yaqinroq bordi Bunyod.
Yordamga fahmi keldi,
Qushlarga rahmi keldi.
Qilichini chiqarib,
Daraxt yoniga borib
O'sha yovuz ilonni,
Xunuk va mudhish jonni
To'g'rab tashladi shu on,
Qumlar bo'ldi qizil qon,
Chaqalar omon qoldi,
Ancha omon jon qoldi.
Chaqalarni qutqarib,
Ilonni qonga qorib,
Daraxtning soyasida
Uya himoyasida,
Uzoq uyquga ketdi.
Joniga oromtsvtdi.
Kun choshgohdai oqqanda,
Quyosh tikka boqqanda,
Qo'zgalgan kabi bo'ron,
Guvillab qoldi osmon;
Yashin uchganday bo'ldi,
Poda ko'chganday bo'ldi.
Ko'kni tutib qanoti,

Butun olamning oti—■
Semurg' dush kelib doldi,
Bunyodni bilib qoldi,
CHangalida zur arslon,
Tumshugida botmon don,
Kuzi ichidagi o't
Olamni qilib nobud.
Uyasiga qo'nmasdan,
Bir oz bo'lsin tinmasdan
Bunyodning boshi uzra
Chiza berdi doira.
Jahon buzib o'kirdi,
Qah-qah urib bo'kirdi.
Emak uchun odamni,
Torta berdi u damni
Chaqalari chirqirab,
Ko'z yoshlari tirqirab,
Yalindilar, qizg'an deb,
U bir gunohsiz jon deb:
«Qizgan ona, o'ksizni,
O'sha qutqazdi bizni.
Bo'lmasa ular edik,
Ochilmay so'lar edik.
Bizni yer edi ilon.
Ayrilarding, onajon».
Semurr uylanib qoldi,
Qalbini shafdat oldi.
Qumning bagriga botgan,
Quyoshda kuyib yotgan,
Bunyodga soya soldi,
Qanot ostiga oldi.

Qush nomli bu buyuk zot,
Undash kumush qanot
Butun borliqni tutdi,
Bor osmonni berkitdi.
Bunyod salqin soyada
Bunday zur himoyada,
Etti tunni uxladi,
Etti kunni uxladi.
Uyg'ona bermagach u,
Bosib tobora uyqu,
Semurg' daryoga ketdi,
Hayal utmasdan yetdi.
Suvni shimirdi cho'llab,
Qanotlarini ho'llab.
Shu zamon uchib keldi,
Jaladay ko'chib keldi.
To'xtab Bunyod qoshida,
Bir silkindi boshida.
Bunyod uyg'ondi darhol,
Uni lol etdi bu hol.
Birdan turib seskandi,
Qushni ko'rib seskandi.
Odamlarga o'xshabroq,
Semug'r boshladi so'rod:
«Ikki ming yildan beri,
Shu keng sahroning yeri
Bo'lmishdir menga makon.
Mendan boshqa biror jon
Kelolmadi bunga hech.
Qumlar kuchib erta-kech,
Vatanidan ajraldi,

Sahro giyoxsiz qoldi.
Qurtlar sarson bo'ldilar,
Uchgan qushlar o'ldilar.
Bunda faqat topdi jon,
Sen halok qilgan ilon.
Hech yog'madi yomg'ir ham,
Er ko'rmadi zarra nam,
Qadam bosmadi inson,
Dorimadi xech hayvon.
SHuncha yil yolriz turdim,
Er va osmonni ko'rdim.
So'yla menga, ey odam,
Boshingga tushdi ne g'am?
Zo'r bir mardlik qilibsani,
Lekin bekor kelibsani.
Tilagingni ayt menga,
Ne ko'mak beray senga
Dunyoni g'amga ko'mgan,
Jafo-alamga ko'mgan
Devni bir ko'rmoqchiman,
Ko'rib o'ldirmokchiman.
Odamlarga baxt bermod,
Baxtlilarga gul termov
Eldan shiorim bo'ldi,
Nomus va orim bo'ldi.
Qushda mehr uyg'ondi.
Qizg'anish bilan yondi,
Kel, esa ustimga chiq,
Mening qanotimga chiq.
Bir nafas o'ltirgin jim,
Bir nafas ko'zingni yum.

Men kuningga yarayin,
Seni olib borayin.
Dengizlardan o'tganda,
Dunyonni suv tutganda
Ko'zlaring ochilmasin,
Xayoling sochilmasin;
O'zingdi yo'qotmagil,
Yana suvga otmagil.
Seni olib borarman.
Kurashingga qararman.
O'lsang gunox; o'zingda,
Qurkuv bilmas so'zingda.
Agar devni o'ldirsang,
Erni nurga to'ldirsang,
Yana olib qaytarman,
Ofarinlar aytarman.
Qanotga chiqdi Bunyod,
Ko'zini chirt yumdi bot.
Va Semurg' qildi parvoz
Dunyoni tutdi ovoz,
Kunbotar tomon ketdi,
Tun yotar tomon ketdi.
Ucha-ucha oxiri
O'rmonlikka yetishdi,
SHovillab nastga tushdi
Yalmogizning qoshidan,
Daraxtlarning boshidan
Vabo o'tganday bo'ldi,
Balo yetganday bo'ldi.
Semurg' bir silkindi bot,
Ko'zini ochdi Bunyod.

Kunbotarda bir o'rmon,
Unga bo'ldi namoyon.
Daraxtlarga ko'z soldi,
Og'ir hayratda qoldi.
Tikildi suq kimgudek.
Bunda usgan har terak
Boshi osmonga yetgan,
Ko'kka chirmaish ketgan.
Atrofga jilva qildi,
Nafaslari tikildi.
Semurh dedi: «Ey botir,
Kel endi o'ringdan tur!
Borib dushmaningni top,
Qilich sol, bo'ynidan chop,
Juna, baxting bor bo'lsin,
O'tkir qilich yor bo'lsin.
Seni shunda ko'tarman,
Kelmasang qon yutarman
Deya ko'zdan yo'qoldi,
Bir kesak bo'lib qoldi.
Bunyod o'rmonga kirdi,
Suv kechib qonga kirdi.
O'tkir qilich qo'lida,
Borar ekan yo'lida
Daraxtlar qular edi,
Yirtqichlar ular edi.
O'rmonda harnaki bor,
Qurtu qushu jonivor,
Qarshi olar edilar,
Nazar solar edilar.
Bu ham bo'lar deb qurbon

Edilar ko'p pushaymon.
CHumchuqlar chirqirardi,
Bulbul yig'lab turardi.
Bunyod esa mardona,
Mardu bahodirona,
O'rmonda borar edi.
Devni axtarar edi.
Oshiqardi ko'ray deb,
Qarshisida turay deb,
Qilar edi ko'p armon,
Topay deb dardga darmon.
Bunyod yetti kun kezdi,
Etti qora tun kezdi.
Eng oxiri tun chog'i,
Bir hid sezdi dimog'i.
Tani jimirlab ketdi,
Qalbi qirlab ketdi.
Bora berdi u hamon,
Guvillab qoldi har yon.
O'rmon shatirlab qoldi,
Barglar patirlab qoldi.
U yana yurdi bir oz,
Oxir dev chiqdi peshvoz.
Sekin-sekin yurardi,
Qah-qah urib turardi.
Dumidan boshigacha,
Boshdan oyog'igacha
Xursandlik olgan edi,
SHodlikda qolgan edi.
Zahar tomar tishidan,
O'lim yog'ar ishidan.

Shoxi osmonda edi.
Tirnog'i qonda edi.
Bunyodga kulib boqib
Nafsiga yigit yoqib
Salom, o'g'lim, kel,—dedi,
Dushman emas, el,—dedi,—
Tilagingni ayt menga,
Ne murod kerak senga
Yigit so'zga boshladi,
Gapni tizib tashladi:
«Bunyod senga el emas,
El, bo'lganni dev yemas.
Sen bir ofat emishsan,
Zo'r qabohat emishsan.
Odamzodning yovi,
O'g'lonlarning go'rkovi,
O'zing emishsan yolg'iz
Boshingga yetajakman,
O'ldirib ketajakman.
Bunyod qilich chiqardi,
O'rmon yaltirab qoldi.
Bunyodning qahri keldi.
Devning ham zahri keldi,
Ko'zlaridan o't sochdi,
O'rmonlikdan tun qochdi.
U har og'iz ochganda,
U har bir o't sochganda,
Zo'r bir yong'in ketardi,
Qancha o'rmon bitardi,
Nafasidan zo'r bo'ron
Qo'zgalar edi har yon:

Tomirlar ko'char edi,
Daraxtlar uchar edi.
Osmonni qushlar tutib,
Hammasi ham qon yutib,
CHirdirashib turardi,
Zo'r kurashni ko'rardi.
To'kilar edi qonlar...
Barcha yirtidichq xayvonlar
Kezardi besaranjom
Saqlab qolmod uchun jon.
Bunyodni yutmoq uchun,
Bo'g'zidan tutmoq uchun,
Dev hamla qilar edi,
Ba'zida qular edi.
Otashda edi ichi,
Bahodirning qilichi
Yaltirardi boshida,
Kular edi qoshida.
Bunyod qilich solganda,
Har bir sirmab olganda
Devni uzib o'tardi,
Uzib, buzib o'tardi.
To'xtamadi qonli jang,
Bo'ldi devning holi tang.
Ikki kunu ikki tun
Solishdi ular butun.
Tinimni bilmadilar.
Yarashga kelmadilar.
Bunyod qilichi bilan,
Zaharli uchi bilan
Devni burdalay berdi,

Qilich qon yalay berdi.
Dev makon qurgan o'rmon
Boshdan oyoq bo'ldi qon.
Qilichni har solganda,
Qar bir sirmab olganda
Bir joyni olib utdi,
Bir rahna solib o'tdi.
Oxiri jon qolmadi,
Jonu darmon qolmadi,
Qilich bug'zidan tutgach,
Tog' kabi yorib o'tgach,
Dev qarsillab quladi,
Bir darsirlab quladi.
Dev qulab yiqilganda,
Birdan yakson _bo'lganda
Erlar qimirlab ketdi,
Zilzila gurlab ketdi.
Cho'zila tushgan chog'i,
Devning boshu oyog'i
O'rmonni tutib ketdi,
Sig'may chetga ham o'tdi.
U tipirlab berdi jon
Va jimjit qoldi o'rmon.
Shundan so'ng botir
Bunyod Bo'lib o'zida yo'q shod,
Qilichni yuvib oldi,
Bir o'pib, qinga soldi.
Parandalar barchasi,
Go'zali, oy parchasi
Botirni uzatdilar,
Olqishlab kuzatdilar.

Yigit Bunyod mardona,
Mardu bahodirona,
Yurib o'rmondan chiqdi,
G'avgo va qondan chiqdi.
Botir g'OYAT beqaror,
Semurg'iga intizor
Turar edi ko'z tutib,
Har ko'zini yuz tutib.
Kesak bo'lib yotgan qush,
Guyo ko'rgan kabi tush
Qonlar to'kilganini,
Bunyodning yengganini;
Botirning g'ussadan pok,
Dev bo'lganini halok—
Bilar edi hammasin.
Kesak bo'lib ko'lkasin
Erga solib yotardi,
Orom olib yotardi.
Bunyod kelgan zamon ul,
SHodlikka to'ldi butkul,
Bir aylanib xush bo'ldi,
Bunyod kuno'li xush bo'ldi.
Botir izidan o'pdi,
Ikki ko'zidan o'pdi.
Dedi: «Kel, ustimga chiq,
Mening qanotimga chiq!
Endi ketga qaytaylik,
Elga doston aytaylik.
Botir yigit ketdik, bo'l!
Kelgan joyga yetdik, bo'l!»
Botir qanotga chiqdi,

Zo'r «duldul otga» chiqdi.
Ko'zini yumgan zamon,
Xayolga cho'mgan zamon,
Semurg' kukda yo'l oldi.
O'rmonlar ketda qoldi.
Bir yurt ko'chib borganday,
Ko'chib uchib borganday
SHovqin-suron zo'r edi
Va beimkon zo'r edi.
«Ey, Bunyod, ko'zingni och,
Jahonni ko'r, nazar soch!
Endi yo'lni toparsan,
Kerak bo'lsa choparsan.
Bor, yaxshilar yor bo'lsin,
Botir, baxting bor bo'lsin».
Qaytadan qo'l ushlashib,
Semurg' bilan xo'shlashib,
Bir-birini quchodlab,
Mehru muxabbat bog'lab

Ajraldilar ikkovlon.
Bunyod jahonni javlon
Urib yana yo'l ketdi.
Sahro bilan cho'l ketdi.
Tog'lar oshdi, qir oshdi,
Oylar bo'yi adashdi.
So'nggi qirdan o'tganda,
O'z yurtiga yetganda,
Kunlarini sanadi,
Tunlarini sanadi,
Angladi, rosa uch yil

Kezganini muttasil.

KAL BILAN BOY

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Uzoq o'tgan zamonda bir beva ayol bo'lgan ekan. Uning uch o'g'li bo'lgan ekan. U kechani kecha, kunduzni kunduz demay, bolalarim ochlikdan quynalishmasin, deb kashta, do'ppi, to'n va boshqa narsalarni tikib, tirikchilik qilar ekan.

Kunlar, oylar, yillar o'tib, ayolning ko'zlaridan nur, qo'llaridan kuch keta boshlabdi, sochlariga oq tushibdi. Bir kuni u katta o'g'lini chaqirib:

- O'g'lim, sen endi katta bo'lib qolding. Mening esa yoshim bir joyga borib qoldi. Ukalarimga boqishimiz kerak. Yur, men seni boy amakingnikiga olib borib qo'yay. U yerda sen boyning yumushlarini bajarib yurasan. Ham qorning to'yadi, ham ukalariga bir burda non topasan, - debdi va boynikiga olib borib, boyga yalinib-yolvorib, o'g'lini olib qolishni so'rabdi. Boy tezlikda unamay:

- Menga ortiqcha nonxo'r kerak emas, o'g'lingni qo'lidan nima ham kelardi! Ertaga biror hol bo'lsa, mendan emas o'zingdan ko'r! - deb ogohlantiribdi. Ayol bechora noilajlikdan boyning so'zlariga ko'nibdi va bolasini qoldirib, uyga qaytibdi.

Boy ayolning o'g'liga:

- Qani, ana u ikki satilni olib, bochkani to'ldir-chi! - debdi.

Bola ertadan kechgahca tinmay quduqdan suv tashib, bochkani to'ldira olmabdi. Kech payti boy bochkani to'lmaganligini ko'rib, bolaga non ham bermabdi. Bola ochlikdan, toliqqanidan qattiq betob bo'lib qolibdi. Boy ayolga bu haqda xabar yuboribdi. Bechora ayol taqdirga tan berib, katta o'g'lini olib keta turib, boyga iltijo qilib, o'rtancha o'g'lini olib qolishni so'rabdi. Boy oldingi safar aytgan gaplarini yana takrorlabdi. Ayol chorasizlikdan rozi bo'libdi.

Ayolning ikkinchi o'g'li ham bochkani to'ldirolmay, akasining ahvoliga tushibdi. Boyning xabarchisi ayolnikiga kelib, bu haqda aytganida, ayolning kenja o'g'li Kal:

- Onajon, ruxsat bering, men boynikiga xizmatkorlikka boray, ikki akamga azob berib, betob qilganligi uchun, uning bir adabini beray, - debdi. Onasi:

- Ikki akang nima qildiki, sen qilarding. Buning ustiga sen hali yosh,-debdi. Kal onasini qo'yarda-qo'ymay qistayveribdi va ko'ndiribdi. Nochor ayolga qanchalik og'ir bo'lmasin, o'rtancha o'g'lini ham betob holda qaytarib olib, kenja o'g'li Kalni, bo'yning shartiga rozi bo'lib, unikida qoldiribdi.

Boy «ikki katta o'g'li bir bochkani to'ldirolmadi, bu kichigi nima ham qilardi», deb o'ylabdi va Kalga ham bochkani to'ldirishni buyuribdi. Kal quduqdan yarim satil suv olib kelib, kamgina bochkaga quyib quloq solib ko'rsa, bochkaning tagi teshik ekan hamda bir chuqurning ustiga qo'yilgan ekan, suv shu chuqurga tushib ketaverarkan. Shuning uchun ham Kalning akalari bochkani to'ldira olishmagan ekan. Kal tezda xamir bilan bochkaning teshigini yopib, ozgina mehnat sarflab, uni to'ldiribdi va boyga bu haqda aytibdi. Oldiniga ishonmagan boy, o'z ko'zi bilan ko'rib iqror bo'lgandan so'ng, Kalga:

- Endi borib yangangga yordamlash, jiyangchangni ko'tarib o'ynat! – debdi. Kal boyning o'g'ilchasini ko'taribdi-da, dumbasidan chimchilab olibdi. Bola yig'lay boshlabdi. Boy:

- Nega bola yig'layapti, ovutsang bo'lasmidi? – deb Kalni koyibdi. Kal yana qattiqroq chimchilabdi. Bola juda qattiq chirillab yig'labdi. Kal:

- Boy ota, bu o'g'ilchangiz hech ovunmaydi, shekilli, - debdi. Boy, achchiq ustida:

- Lingidan olib devorga ur! – deb yuboribdi. Kal shu zahotiyuq bolani lingidan olib devorga urgan ekan, u til tortmay o'lib qolibdi. Boy:

- Nima qip qo'yding, bachag'ar! – deb Kalni ura ketibdi. Kal:

- Boy ota, o'zingiz aytdingiz-ku, - debdi. Taqdirga tan bergan boy:

- Bo'lar ish bo'ldi, bor, ketmonni olib kel! – deb buyuribdi. Kal boyning qari onasiga borib:

- Boy otam aytdilar berarkansiz, - debdi. Boyning onasi:

- Nimani berarkanman, - desa ham Kal bir necha bor faqat “bering, berarkansiz” deyaveribdi. Oxiri joniga tekkan kampir “bermayman” deb yuboribdi. Boy esa hadeb kalni “tezroq olib kel” deb chaqirar ekan. Kal boy tomonga qarab:

- Bermayman deyaptilar, - debdi. Jahli chiqib turgan boy:

- Ketmonni olib boshiga ur! – deb yuboribdi. Kal bo'lsa, fursatni qo'ldan bermay, ketmon bilan urib boyning onasini ham o'ldiribdi. Og'ir ahvolga qolgan boy Kalga hech narsa deya olmay qolibdi. . .

Kunlardan bir kuni boy xotini bilan mehmonga bormoqchi bo'libdi. U kalni chaqirib:

- Biz mehmonga borayapmiz. Sen mol-hollarga, uy-joyga qarab turgin. Otning kallasi yemxaltadan, mol, qo'y, echkilarning kallasi oxirdan uzilmasin, tovuq, bedana va kakliklarning kallasi katak va qafasidan chiqmasin. Hovli yog'

to'kilsa yalagudek bo'lsin. Zeriksang, ko'chaga chiqib darvozaga suyanib o'tirgin, - debdi va mehmonga jo'nab ketibdi.

Kal otni so'yib, kallasini yemxaltaga mol, qo'y, echkilarning kallasini esa oxirga tashlab qo'yibdi. Tovuuq, bedana va kakliklarning kallasini uzib, katak va qafasiga tashlabdi. Hovlining yuziga uydagi bor yog'ning hammasini to'kib chiqibdi. Boy xotini bilan mehmondan qaytadigan kuni esa darvozani buzib olib, boy keladigan boshqa bir ko'chadagi devorga tik qilib qo'yib, suyanib o'tiribdi. Shu payt boy kelib qolibdi-da, kalni ko'rib:

- Ha, nima qilib o'tiribsan bu yerda? Nega hovlidan chiqib ketding? – deb so'rabdi. Kal:

- O'zingiz «Zeriksang, ko'chaga chiqib darvozaga suyanib o'tirgin» dedingiz-ku, - debdi. Boy bu safar ham Kalga lom-mim deya olmabdi.

- Xo'p, mayli, yur, uyga ketdik, - debdi boy.

Ular hovliga yetib kelishibdi. Boy ne ko'z bilan ko'rsinki, Kal barcha aytganlarini teskarisini qilib, uni xonavayron qilgan.

Boyning bu voqealardan keyin Kaldan osonlikcha qutila olmasligiga, akalarini qasdini olish uchun hali ko'p nayranglar ko'rsatishiga aniq ko'zi yetibdi va xotini bilan bu yerlardan qochib ketishni maslahat qilishibdi. Xotini ham rozi bo'libdi va bir tog'ora somsa pishirib, tilla-taqinchoqlarini, kiyimlarini yig'ishtirib, hammasini bir qopga solib, qochishga tayyorgarlik ko'ra boshlabdi. Ular Kal uxlab qolgandan so'ng jo'nab chiqmoqchi bo'lishibdi. Bularning niyatini Kal sezib qolibdi va ulardan yashirincha qopga kirib olibdi. Yarim tunda boy bilan xotini qopni aravaga ortib, yo'lga tushibdilar. Bir tepalikdan ot aravani tortolmay qolibdi. Boy tushib aravani itara boshlabdi. Shunda Kal qopning ichidan, tang bo'lganidan, siyib yuboribdi. Boy buni ko'rib:

- Xotin, somsani seryog' qilibsan, qopdan yog' oqib ketyapti, - debdi. U qo'lini tutib, "yog' zoyaga ketmasin", deb ichib yuboribdi...

Ular yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, bir daryo qirg'og'iga kelishibdi. Boy xotiniga:

- Shu yerda tunab qo'ya qolaylik. Qani, o'tin terib kelib, bir choy qaynat-chi, - debdi. Xotini:

- Kal bo'lganda choyni u qaynatgan bo'lardi, - debdi. Bu gaplarni eshitib turgan Kal qopning ichidan:

- Men shu yerdaman, - debdi.

Boy bilan xotini hang-u mang bo‘lishibdi. Noiloj, boy Kalni qopdan chiqarib, o‘tin terib kelishga yuboribdi va o‘zi xotini bilan qanday qilib Kaldan qutulish yo‘lini maslahat qila boshlabdi. Boy:

- Bu kecha Kal uxlab qolgandan so‘ng, men seni uyg‘otaman. Keyin Kalni qopga solib, daryoga tashlaymiz, - debdi.

Bu gaplarni ham ziyrak Kal sezib qolibdi. Yarim tunda u boyning ko‘zi ilinganini bilib, uni qopga solibdi-da, boyning xotinini turtib:

- Xotin, xotin, tur, tura qol. Kalni qopga soldim. Kel, endi daryoga tashlaylik, - debdi.

Xotin uyqu aralash, qorong‘ida Kal bilan o‘z erini daryoga tashlab yuboribdi. Erta tongda bo‘lgan voqeani bilib, oldiniga rosa yig‘labdi, so‘ngra Kalga yalina boshlabdi:

- Bo‘lar ish bo‘ldi. Endi meni xotinlikka ol. O‘la-o‘lguncha xizimatingni qilaman, - debdi.

Kal bo‘lsa, barcha tilla taqinchoqlarni olib, boy xotinning yolg‘on gaplariga ishonmay, “To‘rt tomoning qibla”, deb o‘z uyiga, onasi va akalarining oldiga borib, murod-u maqsadiga yetibdi.

Kal ham yetdi murodga, siz ham yeting murodga, biz ham yetaylik murodga.

MAQTANCHOQ QUYON

(O‘zbek xalq ertagi)

Kunlardan bir kun jikkakkina ola quyon sheriklariga:

- Bo‘ridan qo‘rqmayman, tulkini bir puflab osmonga uchirib yuboraman, - deb chiranibdi.

- Hamma uning mardligiga qoyil qolib, yoqa ushlab turgan-da, birdan bo‘ri kelib qolibdi.

- Hap, - deb quyonlarga tashlanibdi u.

Ola quyon hammadan oldin eshikka o‘zini uribdi. Bo‘ri uning yo‘lini to‘sibdi. Shu on ola quyon o‘lar-tirilariga qaramay bir sakragan ekan, bo‘rining boshiga chiqib qolibdi. Buni tum-taraqay qochayotgan quyonlarning hammasi ko‘ribdi. Bo‘ri bo‘lsa ola quyonni irg‘itib yuboribdi. Ola quyon zo‘rg‘a qutilib, bir necha vaqt nafasini rostlolmay changalzorlarda yotibdi.

U kech kirganda uyga kirib kelibdi.

- Xayriyat, omon ekansan. Bo‘riga yem bo‘lgansan deb o‘ylagan edik, - deyishibdi quyonlar.

- Be-e, - debdi ola quyon sir boy bermay va maqtanib ketibdi: - Yem bo‘lib bo‘bman! Boshiga chiqib bir tepdim - til tortmay o‘lib qoldi. Terisini shilib oldim.

Ola quyon o‘rtaga chiqib, bo‘rining terisini qanday shilganini maqtanib so‘zlab ketibdi.

- Rahmat senga, ola quyon, bo‘ridan qutilibmiz, - debdi quyonlar.

- Ha, butunlay qutuldinglar, - debdi kerilib ola quyon va bo‘ri poylab turmaganmikin deb xavotirlanib atrofga qarab qo‘yibdi.

U maqtanchoq, lekin juda qo‘rqoq ekan.

MAQTANCHOQ QUSH

O‘tgan zamonda emas hozirgi zamonda bir kattakon o‘rmonda bir qush yashar ekan. Uning hech kimi yo‘q, faqat ikki o‘rdak do‘stlari bor ekan. Bu qush juda maqtanchoq bo‘lganligi uchun uni hech kim yoqtirmas, u do‘stlarini ko‘rsa bir gapni takrorlayverarkan. Ular esa bunga parvo qilmas ekanlar. Kezi kelganda ularni haqoratlarkan.

Bir kuni u do‘stlarini ko‘lda uchratib qolibdi. Jahllariga tegish uchun ularning yoniga uchib kelibdi va “sizlar hayotda zavqlanishni bilmaysizlar, uchishni ham bilmaysizlar. Men bo‘lsam osmonda parvoz etaman. Dunyoni bir kunda kezib chiqaman. Dunyoda mendan-da tez ucha oladigan, mendan-da aqlli qush yo‘q”, debdi-da birdan “qutqaringlar” deb baqiribdi. Chunki u maqtanish tufayli suvga tushib ketib, cho‘ka boshlagan ekan.

Keyin nima bo‘libdi, deysizmi? Keyin-chi, keyin uning do‘stlari qutqarib, quruqlikka chiqishiga yordam berishibdi. U o‘ziga kelgach debdi: sizlarga zor emasdim, o‘zim ham chiqib olardim, deya kerilib uchib ketibdi. U o‘zicha “men nima qilyapman o‘zi. Do‘stlarimni g‘ashiga tegsam ham ular meni qutqarishdi, men bo‘lsam ularni yana haqoratladim. Buning uchun ulardan kechirim so‘rashim kerak”, deya yana do‘stlari tomon uchibdi. Ularga “meni qutqarganlaring uchun rahmat. Iltimos, meni kechiringlar”, deb kechirim so‘rabdi. Ular buni kechirishibdi. U do‘stlariga hech qachon maqtanchoqlik qilmaslikka so‘z beribdi.

MAQTANCHOQ CHUMOLI

Tursunboy Adashboyev

O‘qariqdan
Chim olinib,
Ini ko‘chdi
Chumolini.

Ko‘zi tinib
Javdiraydi.
Tol chivig‘i
Bo‘ldi narvon,

Uymalashib	O'tib olgach
Hayron boqdi,	U bearmon.
Besh-o'ntasi	Boshqalarga
Suvda oqdi.	Maqtandi xo'p:
Bir chumoli	- Oramizda
Shu payt qarang,	Qo'rqqoqlar ko'p.
Chiqib oldi	O'rnak olsa,
Toshga arang.	Bo'lar mandan,
Qo'l-oyog'i	Suzib o'tdim
Qaltiraydi,	Okeandan...

MAQTANCHOQ G'OZ

Abdulla Avloniy

Bir g'oz suvda suzib yurib, o'ziga o'zi maqtanib: - "Olamda mendan hunarmand qush yo'qdir. Yerdan yuraman, suvda suzaman, havoda uchaman. Bir o'zimning uch xil hunarim bor", - debdi. G'ozning bu so'zini bir qurbaqa eshitib: - "Birodar, sen buncha maqtanmasang ham bo'lar edi. Chunki baliqdek suza olmaysan, kiyikday yugura olmaysan, lochindek ucha olmaysan. Chala-chulpa uch hunarni bilguncha, birini yaxshilab bilganing yaxshi", - debdi.

MAQTANCHOQ O'RDAK

Po'lat Mo'min

Ayni yoz chog'i,
Ko'lmak qirg'og'i.
Qarang, bir o'rdak
Bo'lay deb o'rnak,
Maqtandi obdan,
Uyalmay ko'pdan.
- Sho'ng'iyman besh yuz ! -
Deb berardi so'z.
Sho'ng'ishga ko'lga,
Tushadi yo'lga.
Sho'ng'iydi sekin,
Tamosha tekin.
Lekin...
O'n bir bor sho'ng'ib,
Qolgandi to'ng'ib...
Botti balchiqqa,
Pati loy jiqqa,
Tomoshabin g'oz,
Kurka va xo'roz.
O'rdak holidan
Kuldirar biroz.
Bo'lgandi o'rdak

Teskari o‘rnak...

MAQTANCHOQ SHER

Qadim zamonda bir sher bo‘lgan ekan. U o‘ziga-o‘zi maqtanib: - Men hech kimdan qo‘rqmayman debdi. Buni bir qush eshitib, sendan qo‘rqmaydigan jonzot - odam, deb uchib ketibdi. Sher yugurgancha birinchi cho‘qqiga chiqib yo‘lbarsni uchratibdi va unga, sen odammisan? –debdi. Yo‘lbars esa, men seni amakivachchangman-ku, debdi.

- E-e, sen yo‘lbarssan-ku, debdi sher. Sher yo‘lbarsdan odam qayerdaligini so‘rasa, ikkinchi tog‘dan keyin, deb javob qilibdi. Sher yugurib ketayotgan edi bir jarlikka tushib ketibdi va yordam beringlar deb baqiribdi. Uni ovozi odam eshitib yugurib kelibdi-da, arqonni tashlabdi. Sher jarlikdan qutilib chiqibdi va odamga qarab sen qanday hayvonsan debdi. Shunda odam, - men hayvon emas, insonman, - debdi. Sher esa uyalib, o‘rmon tomon kirib ketibdi.

MAQTANCHOQ JO‘JA

Bor ekanda yo‘q ekan, och ekanda to‘q ekan, qadim o‘tgan zamondamas, yaqin o‘tgan zamonda Tuzel qishloq tomonda Sardor degan bola bo‘lgan ekan. Sardorlarning bir ajoyib bolajon, o‘zi ancha qaqajon Chipor tovuqlari bo‘lgan ekan.

Ayni bahor chog‘ida ana shu Chiporxon kurk bo‘libdi, Sardorjonning ham, uy bekasi onajonining ham bundan ko‘ngli to‘libdi. Onajoni avaylab, yig‘ib turgan to‘qqizta tuxumni unga bostirib qo‘yibdi. Oldiga suv qo‘yibdi, don sepibdi.

Tovug‘idan hamisha Sardor xabar olibdi, doni tugaganida don keltirib sepibdi.

Oradan oz ham emas, ko‘p ham emas naq o‘n to‘qqiz kun o‘tganda chiy-chiylashib, quvnashib jo‘jalar chiqibdi tuxumlaridan.

Jo‘jalarning hammasi oltinday sap-sariq emish, patlari naq par-momiq emish. Biroq bitta jo‘ja boshqalaridan farq qilar, rangi ham qop-qora ekan. jo‘jalarning ichida g‘o‘daygani shu ekan, kerilgani shu ekan. Chiporxon unga alohida mehr bilan qarar, Qoravoyim, deb suyar ekan. Topganini yer titib, berarkan unga tutib.

Shundanmi Qoravoyning shishibdi xo‘p dimog‘i. Aka-ukalariga dermish nuqul, “Sizmas o‘rtog‘im. Yer titasiz tun-u kun, men bundan or qilaman, o‘zimni xor bilaman. Menga tengdir faqat g‘oz, ular qanday go‘zal, soz”.

-Hay-hay sho‘x-erkatoyim, birozgina beboshim, unday demagil zinhor, har kimning o‘z zoti bor. Sen tovuq zotidansan, bo‘lolmassan sira g‘oz, suzolmaysan ham suvda, bas so‘zlama, behuda,- nasihat qilibdi Chipor.

-G‘oz bo‘laman dedimmi, g‘oz bo‘laman.

Qoravoy shunday deb pirillab ariq bo'yiga boribdi. Suvda chiroyli suzib yurgan g'ozlarga bir qarabdi, so'ng ortiga – unga afsus bilan qarab turgan onasiga boqibdi. Keyin ... keyin kalta qanotlarini silkitib-silkitib suvga sakrabdi.

-Voy sho'rim, - qoqolabdi Chiporxon boshini changallab. Bu vaqtda maqtanchoq Qoravoy qanotlarini shap-shap suvga urarkan-u, suzolmay cho'kayotgan ekan. Buni ko'rgan g'ozchalar qorinlarini ushlashib, silkinishib-silkinishib kulisharmish.

Chiporxon: "Bolam, mening beboshim, oqizmagin ko'z yoshim", deya o'zini suvga otibdi, bolasini cho'qilab qirg'oqqa qarab tortibdi.

Yaxshiyam Sardorjon buni ko'rib qolibdi, oyisiga boribdi. Ular ona-bolalarni suvdan chiqarib olishibdi. Chiporxonni maqtab-maqtab suyishibdi.

-Ko'rdingmi bolajonim, senga aytgandim-a, teng-tengi bilan deb. G'oz bo'lmasang xo'roz bo'larsan,-koyibdi Chiporxon jo'jasining shalvirab turganiga rahmi kelib.

Ular tovuqxonaga kirib borishganida opa-singillar Qoravoyni o'rab olishibdi.

-Bu yer qanday yaxshi, iliqqinaya, endi sira ham sizlarni tashlab ketmayman,-debdi Qoravoy onasining pinjiga tiqilarkan.

OQ KAPTARLAR OROLI **(Qissadan parcha)**

Abdusaid Ko'chimov

(Qissa qahramoni Suyarqul kattalar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bola aqli bilan hal qilmoqchi bo'ladi. U barcha muammolarni yaxshilik bilan yechish tarafdori. Qissaning davomini topib o'qing, o'zingizga ko'pgina ibrat bo'ladigan xislatlarni olasiz.)

Suyarqul maktabdan keldi-yu, kutilmagan janjalning ustidan chiqdi: katta chechasi o'choq boshida, kichigi peshayvonda bir-biriga shang'illashayotgandi.

- Kecha kelib, bugun xo'jayinlik qilishni senga kim qo'yibdi, oyimcha! – derdi qo'lini paxsa qilib kattasi. Kichigi ham ovsinidan qolishmay, battar o'chakishardi:

- Ho-o, cho'rim bo'ladi, men Xonzodaxon bo'lib o'tiraman, deb o'ylovdingmi, tushingni borib suvga ayt!

Sho'rlik ona nima deyishini, kimning tarafini olishini bilmay ikki o't orasida qiynalardi.

- Bas qilinglar, bo'ldi qilinglar, bolalarim, - derdi u qalt-qalt titrab. – Qo'ni-qo'shnidan ham uyatdir, axir? Sekinroq, jonim qizim, sekinroq. Sizning yoshingiz katta, ovsiningizdan bir-ikki ko'ylakni ko'p yirtgansiz, bo'ldi qila qoling, aylanay.

- Oxirgi marta aytayapman, xola, bobomga ayting, yo bizni, yo anavi jinqarchani opchiqib ketsin bu uydan. Shunday qilmasa, ketaman, dedimmi, baribir ketaman, bir kun ham turmayman bu g'urbatxonada! Turolmay-man! – Katta kelin eshikni qarsillatib yopib, uyiga kirib ketdi.

Kichik kelin ovsinini o'zicha „bir boplamochi“ bo'lib endi og'iz juftlaganda darvozadan kirib kelayotgan qaynotasiga ko'zi tushdi-yu, og'zidagi og'zida, bo'g'zidagi bo'g'zida qoldi, ters burildi-da, u ham o'zini ichkariga urdi.

- Otamdan qolgan molni talashyapsanlarmi yetti mahallaga jar solib, muncha baqirmasanglar! – dedi darvozadan hatlar-hatlamas xotiniga jahl bilan Malik muallim. – Ko'chaga chiqib, quloq solib o'tiribdi qishloqning yarmi. Tiling qirqilarmidi, uyga kir desang-a! uyatsizlar, bezbetlar! – Malik muallim bir-ikki depsinib supa yaqinidagi so'rining bir chetiga o'tirdi. - Qishloqning narigi boshidan eshitib kelayapman-a, o'zi nima janjal? Nimaga hiqillaysan?

Risolat xola ro'molining bir uchi bilan ko'z yoshini artib, cholining ro'parasiga supaga omonat cho'kdi.

- Ajratmasangiz bo'lmaydi. Jinni bo'p qolaman, adoyi tamom qiladi meni bularingiz.

- Hiqillama! Hiqillamay gapir. Nimaga janjallashadi? Biron nima yetmayaptimi, qorni och, usti yalang'ochmi? Janjalning sababi bormi, axir?..

- Kuchugim biladimi! Bir-biriga ko'zi tushdimi, it mushukni ko'rganday vag'ir-vug'ir, qiy-chuv...

- Ayolsan, qaynanasan, so'ramaysanmi sababini?

- Sababi, sababi... Sababi – bitta! Bir hovliga sig'maydi bularingiz. Tomorqa olib, bittasini shartta chiqarib yubormasangiz, el-yurt oldida sharmanda-yu sharmisor bo'lamiz.

„Tomorqa“ so'zini eshitgan Malik muallim beshbattar tutaqdi.

- Tomorqa desam, joningiz chiqadi. Odamlar beshikdagi bolasiga joy olib, ravot tiklab qo'yyapti-ku! Qayoqdan olayapti ular? Hammaga bor narsa sizga yo'qmi? Siz...

- Hey, inson, tushunsang-chi, axir. Senga necha marta aytdim, hozir bu gapni mavridi emas, deb. Bir yildan keyin qishloq etagidan yangi ko'cha tushar ekan, hammaga tomorqa berilar ekan. Raisning o'zi, o'z og'zi bilan aytdi. Sizga bir emas ikkita tomorqa beramiz, dedi. Raisdek odam shunday deb turgandan keyin men nima ham qilardim?.. „Yo'q, bersang ham berasan, bermasang ham berasan,“, - deb tomog'idan g'ippa bo'g'aymi-a? Ayt, nima qilay?!

Risolat xola lom-mim demay, tizzalariga tayanib, zo'r-bazo'r o'rnidan turdi. Ayvonning bir chetida ustunga suyangan kuyi garangsib turgan Suyarqulga ko'zi tushdi-yu, allanechuk bo'shashib, ko'zlariga yosh qalqdi.

- Keldingmi, bolam, - dedi u nihoyat ovozi qaltirab. – Sigiringga nima bo‘ldi ekan? Ochqap, bo‘kirib o‘layotgandir. – Kampir chuqur xo‘rsinib, o‘choqboshiga yurdi. – Dasturxon opchiq, - dedi u to‘xtab ortiga o‘girilarkan, - tokchadagi piyolada murabbo bor, avval qorningni to‘yg‘azib ol...

UCH KUN XO‘ROZ BO‘LGANIM **(Hajviy qissadan parcha)**

Said Anvar

Hech tovuqxonada yashab ko‘rganmisiz? Oh Mazaki, naryog‘i yo‘q. Birov o‘choqning o‘tiga qara demaydi, molning tagini kura demaydi. Bir kunimga yara demaydi... To‘yguncha uxlayverasiz. Saharda birov tur demaydi, yuzingni yuv demaydi. Yotaverasiz yonboshlab...

Yedi-ichdining muhayyoligini ayting. “Ma, ye!” deyishib olib kelib berishadi – tumshuq cho‘zish qoladi, xolos, sizdan. Tuxum esa dehqonchilik – peshma-pesh yetkazib turishibdi. Ilitib ham o‘tirmaysiz: yangi ishlab chiqarilganda o‘zi issiq bo‘ladi. Mabodo sovub qolgan bo‘lsa, birorta tovuqni shartta ushlab, ustiga bosasiz, iliydi. (Ichiga tiqib isitsa ham bo‘larkan-u, tovuq qurg‘ur ranglari o‘zgarib, ko‘zlari pirpirab, yutinaverib, ha, der ekan).

Hamxona bo‘lganingizdan keyin tovuqlar ham hayiqmay qo‘yar ekan. Ko‘zim uyquga ketdi; biri qornimda, ikkinchisi boshimda sayrni boshlab qoladi. Sal qo‘yib berilsa, uchinchisi og‘zingizga nos tuflab ketishdan ham toymaydi.

Og‘zimni yumib uxlashga tovuqxonada odat qildim.

Mabodo “kim xo‘p va ko‘p so‘ka oladi” degan musobaqa o‘tkazilsa buvim birinchi o‘rinni olsa kerak. Astoydil bo‘lishsa ertadan kechgacha tinmay so‘ka olishadi-da! Albatta, buvimning g‘olib bo‘lishiga xizmatlarim salmoqli bo‘ladi. Insof bilan aytganda menam musobaqalarda shohsupani egallashim mumkin: yugurishdan. Faqat buvim bilan hamkorlik qilishim kerak – kesak yoki o‘qlov ko‘tarib quvlab turishsa bas.

Ammo bellashuvlarning bosh yorolishi yoki qo‘l sinishi bilan yakunlagani yomon bo‘larkan. Ayniqsa, bu galgi musobaqa murosasiz bo‘ladi: buvim yugurishdan ham chakki emas ekan. Tomga qarab qochtim. Undan bostirmaga sakrab o‘tdim. Finishga bir bahiya qolganda: Bostirmadan tovuqxonaga, undan ko‘chaga sakrasam g‘alaba – ozodlik edi.

Afsus tovuqxonaning tomi bevafoqlik qildi: O'yildi – gursillab ichiga yiqildim. Tovuqlar qoqog'lashib o'zlarini simto'rga urishdi. Qo'limga ilingan kesakni otdim. Nomard, chap berdi. "Qu-qu" lab o'zini so'nggi ijodi bo'lgan tuynukka urdi va uchib chiqib ketdi, la'nati. Ortidan tog'orachani otdim. Yana bir afsus: Tuynuk teshigiga tegib, ortiga qaytib peshonamni g'urra qildi. Alamdan, to'g'risi, yig'lab yubormoqchi bo'ldim. Xiyiq deb boshlab ham qo'yuvdim. Qarasam, buvim qurollanish poygasini avj oldirib, bir qo'lida kesov, ikkinchisida o'qlov bilan tepamda turibdi. Mudofaga o'tdim: Tog'orachani qalqon qilib, burchakka qapishdim. Buvim simto'r orasidan nayzaboslikni boshladi.

- Ha, juvalmak o'lgur! Emapgina ketgur! Tovuqxonaning tomini ham teshibsan-da! Shu yetmay turuvdi. Mana senga, mana senga!

Og'riqqa chidab bo'lmadi. Tovuqxona eshigini itardim, tepdim – otam xafsala bilan mustahkam qilib qurgan ekan, ochilmadi. Tuynukka sakradim – yetolmadim. Yalinib ko'rdim – pastlamadi. Buvim harakatlarimni ko'rib xursand bo'lib ketdi.

- Ajab bo'пти, xo'p bo'пти. O'zi seni biror hafta og'ilga qamab xumordan chiqolmay yurgandim. Ko'nglimdagiday ish bo'пти. O'tiraverasan, endi xo'roz bo'lib, yeryutgur! Niyatingga yetibsan!

Aslida men xo'roz bo'lishni orzu qilmagandim. Mana qarang, miriqib uxlab yotibsiz. Shirin shakar tushlar ham ko'ryapsiz, tamshanib.

Dasturxon noz-ne'matga to'la. Olma deysizmi, anor deysizmi, uzummi hammasi muhayyo. Zarbop choponli shoh dasturxon yuqorisida yostiqa yonboshlab yotibdi. Oldida tovuqning son go'shti ko'rinib turgan yog'liqqina sho'rva. Eshikdan Mamarayim shilta kirib, shohga ta'zim qiladi:

__ Shohim, o'g'ri tutdim, nima qilay!

- Keltir! – deydi shoh.

Mamarayim o'g'ri – Hay-italini bo'ynidagi arqondan sudrab kiradi.

- Nima o'maribdi? – shoh ularning ta'zimiga parvo qilmay so'raydi.

- Gunohi og'ir, shohim! – Mamarayim boshini egadi. – Bir qoshiq qonimdan kechsangiz...

- So'zla!

- Sizning oshiqlaringizni o'g'irlab...

- Nima! – shoh g'azab bilan o'rnidan turib ketadi. – Qanday jur'at etding, itali!

Hay-itali boshini yerga uradi:

- Rahm qiling, shohim, rahm qiling!

- Yo‘q. Sen oliy jazoga mahkumsan: mollarni qaytarib kel!

Hay-italining dod-u faryodi xonani tutadi. Mamarayim uni sudrab olib chiqadi. Shoh sho‘rvadan ho‘plab, go‘shini qo‘liga oladi...

- Haliyam yotibsanmi, yeryutkur! Xo‘rozning qichqirgani qachon edi.

Uff! Tush rasvo bo‘ldi, go‘sh ham.

Hammasiga mana shu shallaqi xo‘roz aybdor. Nega, dersiz? Eng birinchi uxlaydigan maxluq xo‘roz bo‘ladi. “Quloq cho‘zma”, yo “Yashin to‘paloq” o‘ynamagandan keyin uxlaydi-da! Mayli uxlayversin, qarshilik yo‘q. Ammo uyg‘onish masalasi... Sal insof ham kerak-da. Kallai saharlab turib oladilar. Tursinlaram, lekin bir-ikki soat burun kovlab, yoki xayol surib yotsalar nima qaladi? Yo‘q, bu kishim o‘zlarini ko‘rsatmasalar bo‘lmaydi: “quq-qu-quq-quv!”. Boshqa xo‘rozlar undan ilhomlanib qishloqni boshlariga ko‘tarishadi. Ulardan keyin Bozor buvamning eshagiga xudo beradi: “I-o, i-o, i-o! Xo-xo-xo! Pufff!”.

Chuqur esnab buvim uyg‘onadi. Allaqanday duolarni takror-takror aytib, “bismillo” deb o‘rinlaridan turadi. Obdastani topar-topmas ko‘rpamni tortadi:

- Haliyam yotibsanmi, juvalmak! Xo‘roz qichqirgani qachon edi. Tur.

Qimirlab qo‘yaman-da, uyquning avjini olaman. Buvim bir aylanib kelib, yana turtkilaydi.

- Tur, dedim senga! Bir marta aytganda turib ketaversang bir narsa bo‘p qolasanmi, tur!

Ertalabki uyqudan shirin narsa bu dunyoda bo‘lmasa kerak. U tomonga ag‘darilib dong qotaman. Buvim ham bo‘sh kelmaydi.

- Seni o‘n marta uyg‘otishim kerakmi, e!

Bu safar dik etib o‘rnimdan turib ketaman. Buvimni qo‘lida bir kosa muzday suv bo‘ladi-da! Albatta, tovuqxonaga chopaman. Qo‘limga ilingan narsani xo‘rozga qarab otaman. U xavfdan qochib sapchiydi-da, bir-ikki “qu-qu”lab yana hech narsa bo‘lmaganday xashak titkilashni davom ettiradi.

Bu kasofat na uyquning qadriga yetadi, na zardani biladi. Qorni ochilib uyg‘onsa kerak deb kechqurun donni xonasiga to‘ldirib yotdim – bo‘lmadi. Erta yotgani uchun barvaqt turadi deb uxlashdan oldin tovuqxonani kesakvarang qilishni odat qildim – natija nol. Og‘zini boylab qo‘yish operatsiyasi, kesov yeyish bilan yakunlanadi.

- O‘ltirasan, juvalmak, o‘ltirasan! Shu xo‘rozga bir narsa bo‘lsin seni sog‘ qo‘yarmikanman!...

QAHR VA MEHR (Qissadan parcha)

1. AYNI YOZ EDI...

Nosir Fozilov

Yo‘q, hech ham maqtayotganim yo‘q. Handalakdekkina shirin qishlog‘imiz bor: uch mahallaga bo‘lingan bo‘lsa ham orastagina, shinamgina. Nomi ham o‘ziga yarashib tushgan: Chaman! Odamlari ham qishlog‘imizday sodda, yoqimtoy, zahmatkash. Odamlarimiz qanday yumush bilan shug‘ullanishmasin, qishlog‘imizga yarashib turadiganday nazarimda: o‘roq o‘rishi ham, ketmon chopishi ham, qo‘sh haydashi, suv sug‘orishi ham...

Qishlog‘imiz oqshomini bir ko‘rsangiz: odamlar daladan qaytib kelayotgan, poda orqasida bulutdek chang qoldirib, qishloq sari siljiyotgan, kun bo‘yi ang‘iz ustida donlab, g‘ujg‘on o‘ynab yurgan qora zag‘chalar qishloq osmonini ajib bir kuyga to‘ldirib Sir bo‘yiga – qo‘noq joyiga shoshilayotgan... Qarab turib hayron qolasan: go‘yo mamlakatimizda urush tufayli chekayotgan dard-hasratlari-yu, la‘nati urushning qishlog‘imiz boshiga solgan va solayotgan noxush nadomatlari ham esingga kelmaydi. Qishloqning oqshom ko‘rinishlari – tirikchilik musiqasi seni bir nafas o‘z og‘ushiga olib sarmast qilib qo‘yadi. Aslida shundaymi? Yo‘q, bu faqat tashqi ko‘rinishi. Qishloq tirikchiligiga, odamlarning ichki kayfiyatiga tuzukroq razm solgan kishi boshqacha holatni tuymay iloji yo‘q. Shu kichkina qishloq umri, tirikchiligi tashqaridan qaraganda go‘yo tinch oqar soyga o‘xshaydi. Jimir-jimir qilib yuzasi silliq oqib turibdi, ammo tagi-chi, tagi? Tagida girdoblar, shovvalar, buralib oqadigan joylari bor, shovvalar yo‘lida xarsanglar-u to‘nkalar yotibdi...

Ishdan qaytayotganimda shunday kayfiyatda edim. Kelsam oyim uyda ekanlar. Bizlardan ilgariroq qaytibdilar.

- Keldingmi, bolam, sigirlaringga qara.

Kamzulimni yechib, chopganimcha podaning oldiga chiqib ketdim. Quyosh endi qizarib botib, podaning oldi qishloqqa kirib kelayotgan ekan. Bolalarning qiy-chuvi-yu, sigirlarning mo‘rashi, itlarning vovillashi... hatto mana bunday shabadasiz oqshomda sigirlarning tuyoqlaridan ko‘tarilgan oppoq changning kattakon juldur ko‘rpaga o‘xshab havoda muallaq qalqib yurishi, hamma-hammasi har kuni yangi, har kuni qiziq bo‘lib ko‘rinadi menga. Kunduzi dalada, ko‘chada ko‘rolmagan bolalarni shu yerda ko‘rasan. Huv, ana quyuq chang

orasida Karim ko‘zoynak olasini oldiga solib, targ‘ilining dumidan ushlagancha chopib borayapti...

Jalil bilan Abdunabilar ham shu yerda. Ana, Iriskeldi bobo kelyaptilar tayoqlarini do‘q-do‘q etkazib. Uning o‘g‘li Qalmaqon poda ketidan uyoqdan-buyoqqa chopadi, chetga chiqqan sigirlarni qytaradi:

- Hoy, ko‘zoynakning targ‘ili, qayt orqangga, qorason tekkur!

Ba‘zan jahli chiqib ketsa, butun qishloq eshitgunday qilib sigirlarni egalariga o‘xshatib so‘kadi:

- He, egangga o‘xshamay o‘l, sumiltirik! Bu senga “Qovunqurt” mahallasimi, surishtirmay kirib ketaverasan...

Bunaqa paytda ba‘zi sigirlar shoxini bigiz qilib Qalmaqonga o‘dag‘aylaganday bo‘ladi, shunda u tayog‘ini o‘qtalib po‘pisa qiladi:

- Yaxshi mol bo‘lay desang, Karim ko‘zoynakka o‘xshama, bo‘yningga pichoq tortilgur!

Biz qotib-qotib kulamiz...

“Karim ko‘zoynak” deganimiz bu – qishlog‘imiz bug‘alteri Izzatulla akaning o‘g‘li. “Qovunqurt” mahallasidan. O‘zi biz bilan teng. Bir sinfda o‘qiymiz. Qop-qora, ozg‘in, rangpar, o‘z ishiga pishiqqina, shumgina. Buning ustiga ko‘zoynak taqib yuradi. Ko‘zi nochor bo‘lsa kerak-da. Qishlog‘imiz kichkina bo‘lgani uchun bu yerda ro‘y bergan barcha g‘ayritabiiy ishlar xuddi kaftda turganday ko‘rinadi-qoladi. Bunaqa odamga hamqishloqlar darrov o‘zlaricha laqab ham to‘qib olishadi. Qishlog‘imiz yosh-yalanglari orasida Karimdan boshqa ko‘zoynak taqqan bola yo‘q. Ammo Karimlar Chamanda uch-to‘rtta. Ulardan bu Karimni farqlash uchun bo‘lsa kerak, bug‘alterning o‘g‘lini “Karim ko‘zoynak” deb atab ketishgan. Shunga o‘xshash ba‘zi kattalar Qo‘chqor muallimni “Qo‘chqor cho‘loq” deb atashadi. Negaki, u yaqinda askarlikdan bir oyog‘idan ayrilib, qo‘ltiqltayoqda qaytib keldi...

SHUM BOLANING NABIRALARI

(Qissadan parcha)

Nosir Fozilov

O‘zi ishing bir orqaga ketmasin ekan. Orqaga ketdimi, odamlarning ko‘ziga yomon ko‘rinaverar ekansan. Hamma balo fizika kabinetidan boshlandi. Anvar bilan Furqat maktabda birdaniga ikkita to‘garakka a‘zo: bir – fizika, ikkinchisi – qizil iztoparlar to‘garagi. Fizika to‘garagiga a‘zo bo‘lganlarining sababi – temir-tersak ikkalasining ham joni: radiomiyey, eski televizormi-yey, zvonog-u dazmolmi-yey... xullas, qo‘llariga nima tushib qolguday bo‘lsa, bilsa-bilmasa kavlashgani kavlashgan. Dars tayyorlash ham, ovqat yeyish ham

eslariga kelmaydi. Shuning uchun ham, birinchi va ikkinchi chorakdagi baholari pasayib ketdi.

Mana bugun Anvar uyiga xursand qaytib kelyapti. Qo‘lidagi unniqib, eski mahsiga o‘xshab qolgan qora shapkasining ichiga og‘irroq bir narsa solib olgan shekilli, har siltaganida naq yirtib chiqib, otilib ketay-otilib ketay deydi. Kayfiyati joyida; uchinchi chorak yakunida ikki chiqmaydi: o‘zlashtirishi durust bo‘ldi. Qani endi hozir ro‘paradan biror o‘rtog‘i chiqib qolsa-yu, kundaligini ko‘rsatib bir maqtansa! Aksiga olib uning oldidan hech kim chiqmadi. Bir-ikkita mayda bolalar uning qorasini ko‘rishlari bilan uzoqdan qochib qolishdi. Nega deganingizda, ularning ham qulog‘ini cho‘zaverib, papkasini olib qochaverib zada qilib qo‘ygan-da!..

Uyiga yaqinlashib qolganda, unga xat tashuvchi chuvakkina tatar chol duch kelib qoldi. Boshida kiyilaverib yog‘i chiqib ketgan eski kepka, ustida astari paralon surplash. Bir xonasida xatlar, banderollar; bir xonasida jurnallar, gazetalar tiqilib turadigan og‘ir qora sumkasini bazo‘r ko‘tarib, bedana qadam tashlab kelardi. Uni mahalladagilar hurmat qilib “Atiy” deyishadi.

- Salom, Atiy, - dedi Anvar ham odob bilan.

- Iy, sinmisan, Anvar. Salom, salom, salom, - dedi Atiy ham to‘xtab. – Qalay, malay. O‘qishlaring maturmi?

- Yaxshi, - dedi Anvar uning to‘xtab hol so‘raganidan xursand bo‘lib. Mana endi maqtansa bo‘ladi deganday, darrov kundaligini olib, xat tashuvchiga ko‘rsatdi. – Mana, ko‘ring Atiy, bironta ham ikkim yo‘q.

Og‘ir sumka yelkasidan bosib, bir tomonga qiyshaytirib tursa, ham Atiy erinmasdan Anvarning ko‘ngli uchun kundalikni ko‘zdan kechira boshladi. Chorak yakuni nuqul ”uch” edi. U hayron bo‘lib:

- Iy, “Do‘rt-besh” laring qaya? – dedi.

- O‘qituvchilarimiz “to‘rt-besh”dan ham “uch” yaxshi deyishadi.

Atiy ham hayron bo‘lib, ham istehzo bilan Anvarga tikildi.

- Aya, shulay, shulay...

U shunday deb yelkasidagi og‘ir sumkasini bir silkib, g‘alati iljaydi, so‘ng boshini bir chayqab yo‘lga tushdi. Anvar shoshib so‘radi:

- Atiy, menga xat-pat yo‘qmi?

- Yoza, yozalor... - dedi Atiy va Furqatlarning ko‘k darvozasidan pochta qutisiga bir xat tashladi. Anvar xatga qiziqib qoldi. Qanaqa xat ekan bu? Furqatgamikan? Qayoqdan kelibdi? Atiy muyulishdan boshqa xonadonlarga burilib ketganida, Anvar yugurib borib, uyoq-buyoqqa alang-jalang qildi-da, pochta qutisiga jimjilog‘ini bazo‘r tiqib, xatni

sugʻurib oldi. Bunday qarasa, “Gulxan” jurnalidan ekan. Harflari ham qizil, koʻk boʻyoqlari bilan yozilibdi. Furqatga ekan.

U konvertni hasad bilan tomosha qilib turganda, uzoqdan Furqatning qorasi koʻrinib qolsa boʻladimi? Nima qilarini bilmay dovdirab qoldi, xatni olgan joyga tashlay desa, ichida nima yozilganini bilmay qoladigan. Ochib oʻqiy desa ulgurolmaydi. Xullas, qayta oʻrniga joylashga chogʻlangan edi, Furqat yaqiniga kelib qoldi. Shosha-pisha xatni kurtkasining choʻntagiga tiqib yubordi.

- Ha, nima qilib turibsan? – soʻradi Furqat soʻrashish uchun qoʻl choʻzib.

Xatni sezib qolgan gumon qilib, Anvar kalovlandi. Keyin gapni boshqa yoqqa burmoqchi boʻldi.

- Ha, oʻzing nega kechikib qolding?

- Bilasanmi, anovi Gʻayratga “Gulxan” jurnalidan xat kelibdi. Shuni oʻqidik.

Anvarning ichida bir nima chirs etib uzilib ketganday boʻldi. Beixtiyor qoʻli xat turgan choʻntagiga bordi...

* * *

QORXAT

(Qissadan parcha)

OʻZIM HAQIMDA

Nosir Fozilov

Gapni choʻzib oʻtirishni yoqtirmayman. Qisqa qilib aytib qoʻya qolay: yozuvchi boʻlmoqchiman! Toʻgʻrisi, ilgari yozuvchilikdan sal koʻnglim qolgan edi. Axir oʻzingiz oʻylab koʻring: kecha-yu kunduz xayolingizda yozuvchi boʻlishdek yuksak orzu boʻlsa, tinmay mashq qilsangiz, yozgan sheʼrlaringiz, hikoyalaringiz siz oʻqiyotgan maktabda ovoza boʻlib ketsa, devoriy gazetada ishlaydigan bolalar, bolalar yetakchisi kettingizda gʻuj-gʻuj boʻlib yursa, “falon ikkichi bola – haqida sheʼr yozib ber, kolxozimiz paxta planini bajaribdi, majlisda maktabimiz nomidan sheʼr oʻqib ber”, deb yalinsa-yu, sinfimiz rahbari birdan idoraga chaqirib olib: “Darslardan mazang yoʻq, avval dars, keyin shoirlik!” deb qiynov-qistovga olsa! Shu ham gap boʻldi-yu! Nima, Toʻrtkoʻldan ham bir yozuvchi chiqsa arzimaydigan rayonmi? Menimcha, arziydi. Koʻp kitoblarda oʻqiganman. Yozuvchilar hayoti yozilgan kitoblarda ham bor: yozuvchi yo katta shahardan, yo sermanzara, chiroyli qishloqdan chiqadi. Bizning Toʻrtkoʻlimiz uncha katta shahar boʻlmasa ham chiroyli qish... yoʻ-yoʻq, tuman. Shahar desa

ham bo‘ladi. Undan keyin, manzarasi boy. Shundoq yonginamizdan Amudaryo yoyilib oqadi. Daryo bo‘yi ko‘m-ko‘k to‘qay. Undan berida paxta dalalari... Kichkina bo‘lsa ham aerodromimiz bor. “IL-14”, “YAK”, “Kukuruznik” deyigan samolyotlar birin-ketin uchib-qo‘nib turishadi. Tumanimiz markazida chiroyli-chiroyli uylar, serdaraxt ko‘chalar...

Bizning uyimiz ham ana shu markaziy ko‘chalardan birida.

Keling, uyimizga yaqinlashib qoldingiz, tanishib qo‘ya qolaylik: meni maktabimizdagi bolalar Sog‘indiq shoir deyishadi. Gapning rosti, bolalarning “shoir” deb chaqirishi menga yoqadi. Indamayman. Rayonimizdagi o‘zbek maktabining 7-a sinfida o‘qiyman. Qanaqa o‘qishimni gapirib o‘tirmayman. Hozir yomon emas. O‘tgan yili bir oz... Xayr, mayli, o‘tgan ishga salovat, deyishadi-ku, kattalar.

Dadam rayon kasalxonasida bosh vrach bo‘lib ishlaydi. Ismi Murod, familiyasi Qurbonnazarov. Ishxonasidagi odamlar uni Murod G‘oipovich deb chaqirishadi. Oyim ham dadam bilan birga... Oyjamol Quvondiqova! Bolalar vrachi. U, ayniqsa meni yaxshi ko‘radi, “Oltinim” deb erkalagani-erkalagan. Bilmayman sal sariqligim uchunmi yo... Dadam bo‘lsa undiq emas, tergagani tergagan. Bitta singlim ham bor, Feruza! Uchinchi sinfda o‘qiydi. Juda qaqildoq. Uning oldida bir ish qilolmaysan. Darrov dadamga chaqadi. Yomon ko‘raman.

Sinfimizda ham bunaqa qaqildoqlar ancha-muncha. Ayniqsa, Mahfuza degan bir qiz bor, sinfimiz sardori. Aytganini qildirmay qo‘ymaydi... Keling, qaqildoq haqida keyinroq aytib berarman.

Xo‘sh, nimani gapirayotgan edim? Kechirasiz, adabiyot muallimizning tili bilan aytganda “o‘tlab” ketibman. U kishi o‘zi so‘ragan narsadan sal tashqariga chiqsang, “Qurbonnazarov, o‘tlama”, deydilar. Ha, aytganday, gap yozuvchilik haqida edi-ya?

Men maktabimizda anchagina obro‘ga ega edim. Kunlardan bir kun sinfdoshlarim yozgan she‘rlaringni Toshkentga, gazetaga yubor, deb maslahat berishdi. (Qaysi gazetaga yuborganimni aytmayman.) Anchagina she‘rlarimni oppoq qog‘ozga chiroyli qilib ko‘chirib, tagiga “Shoir Sog‘indiq Qurboniy” deb yozib yubordim. Yubordimu o‘zimni qayerga qo‘yishimni bilmayman. Yurish-turishlarim ham boshqacha bo‘lib qoldi. Qandaydir bir shirin xayol vujudimni qamrab oldi: gazetaning navbatdagi sonlaridan birida she‘rlarim bosilib chiqadi! Hamma o‘qiydi. Ana, undan keyin sinf rahbarim urushib bo‘pti. Mahfuza qaqildoq atrofimda parvona bo‘ladi. Adabiyot o‘qituvchimiz ham “o‘tlama” deyolmaydi. Kimsan, shoir Qurboniy!..

Gazetani bir hafta kutdim, gazeta keldi. Bunda ham bosilmabdi. Buning ustiga o'sha kunlari redaksiyadan bir xat olib butunlay hafsalam pir bo'ldi.

Agar uyimizga dadamning bir yozuvchi o'rtog'i kelib qolmaganida, yozuvchilikdan butunlay ko'nglim qolgan bo'larmidi...

Dadam ko'pdan beri bir shoir o'rtog'i bor ekanligini, u Toshkentdagi jurnalda ishlashini aytib yurar edi. Bir kuni uyga ertaroq qaytdim. Mehmon kelibdi. Eshikdan odob bilan salom berib kirdim. Haligi mehmon alik oldi. O'zi dadam tengi. Oq sariqdan kelgan, o'rta bo'yli. Chakka sochlariga sal oq tushibdi. Qarashlarida qandaydir bir iliqlik bor. Menga qarab jilmayib turibdi.

Dadam kulib:

- Keling, shoir, - dedi.

Haligi kishining oldida uyalib ketdim. Dadam hech bunday demas edi. Papkamni asta qo'yib, dadam chaqirib qoldi.

Sog'indiq, beri kel.

Oldiga bordim.

- Bu amakingni taniysanmi?

Yelkamni qisdim.

- Nega tanimaysan? – dedi dadam jiddiy tus olib. – Aytmabmidim senga, Toshkentda shoir o'rtog'im bor deb?...

KICKINA SHAHZODA

Antuan de Sent-Ekzyuperi
(Fransuz yozuvchisi)

(Kichkina shahzoda o'zining olisdagi mittigina sayyorasidan Yerga uchib kelgan bolakay. U ancha-muncha sayyoralarda bo'lgan, har xil odamlarni uchratgan. Lekin u qayerda bo'lmasin, tezda zerikib qoladi, o'z sayyorasini sog'inadi. Chunki Kichkina shahzoda o'sha yerda tug'ilgan. O'sha joy – uning vatani. O'sha joyda uning sevimli guli kutmoqda. Kichkina shahzoda o'z vataniga qayta oladimi? Ushbu qissani oxirigacha o'qisangiz bu savolga javob olasiz.)

Olti yashar paytimda, osuda o'rmonlar haqida hikoya qiluvchi "Bo'lgan voqealar" degan kitobda g'alati bir suratga ko'zim tushib qoldi. Suratda bahaybat bo'g'ma ilonning bir yirtqich hayvonni tiriklay yutayotgani aks ettirilgan edi.

Surat tagiga shunday deb yozilgan edi: “Ilon o‘ljasini chaynab o‘tirmay but-butunisicha yutib yuboradi. Shundan keyin u joyidan qimirlolmay qoladi va to o‘ljasini hazm qilib bo‘lgunicha surunkasiga yarim yil dong qotib uxlaydi”.

Men junglidagi sarguzashtlarga to‘la hayot haqida uzoq xayol surdim, so‘ng rangli qalam bilan umrimda birinchi marta rasm chizdim. Bu mening 1-raqamli rasmim edi. Mana, men chizgan narsa:

Ijodim namunasini kattalarga ko‘rsatib, qo‘rqinchli emasmi, deb so‘radim.

- Shlyapaning nimasi qo‘rqinchli ekan? – deb e‘tiroz bildirishdi menga.

Ammo rasmdagi narsa sirayam shlyapa emas edi. Bu – filni tiriklay yutib yuborgan bo‘g‘ma ilon edi. O‘shanda, kattalarga tushunarli bo‘lsin, deb ilonning ichki ko‘rinishini ham chizdim. Axir, kattalarga hamma narsani doim tushuntirib borish kerak-da. Bu mening 2-raqamli rasmim edi.

Kattalar menga ilonlarning ichki-yu tashqi ko‘rinishini chizish o‘rniga jug‘rofiya, tarix, arifmetika va husnixatni ko‘proq o‘rganishni maslahat berishdi. Ana shundan keyin, olti yashar paytimda rassomlikning porloq istiqbolidan voz kechishga majbur bo‘ldim. 1- va 2-raqamli rasmlarim muvaffaqiyatsizlikka uchragach, o‘zimga nisbatan ishonchimni yo‘qotdim. Kattalar hech qachon o‘zlaricha biron narsani tushuna olmaydilar, ularga hadeb hijjalab tushuntirib beraverish esa oxir-oqibat bolalarning ham joniga tegib ketadi.

Shunday qilib, boshqa kasb tanlashimga to‘g‘ri keldi-yu, uchuvchilikni o‘rganib oldim. Osmoni falak bo‘ylab qariyb butun dunyoni kezib chiqdim. Ochig‘ini aytish kerak, jug‘rofiya juda menga qo‘l keldi. Bir qarashdayoq Xitoyni Arizona viloyatidan ajrata oladigan bo‘ldim. Kechasi samoda adashib ketsang, bu benihoya asqotadi-da.

Umrim davomida turli-tuman jiddiy odamlarni uchratdim. Kattalar orasida uzoq vaqt yashadim. Ularni yaqindan ko‘rdim, bildim. Va bundan, tan olishim kerakki, ular haqidagi fikrim yaxshi tomonga o‘zgarmadi.

Kattalar orasida boshqalardan ko‘ra aqlli va farosatliroq biror kishini uchratganimda unga 1-raqamli rasmimni ko‘rsatardim – men uni asrab qo‘ygan edim, doim yonimda olib yurardim. Bu odam chindan ham biror nimani tushunadimi-yo‘qmi, sinab ko‘rmoqchi bo‘lardim. Ularning barchasi rasmga qarab turib: “Shlyapa-ku, bu”, derdi. Shundan keyin men ularga na bo‘g‘ma ilonlar, na junglilar, na yulduzlar haqida og‘iz ochardim. Ularning tushunchalariga moslashardim-da, brij va golf

o‘yinlari haqida, siyosat va bo‘yinbog‘lar haqida gap boshlardim. Shunda kattalar menday bama’ni odam bilan tanishganlaridan behad mamnun bo‘lar edilar...

Tarjimon Xayriddin Sulton

BOLALAR UCHUN LATIFALAR

I. Maktab hayotidan lavhalar.

1. O‘qituvchi: - “Men yuvinyapman”, “sen yuvinyapsan”, “u yuvinyapti” desak, qaysi zamon bo‘ladi?

O‘quvchi: - Albatta, ertalab bo‘ladi-da...

* * *

2. Bugun o‘qituvching yana sendan nolidi, - dedi ona o‘g‘liga.

- Nega endi, oyijon? Bugun, umuman, maktabga borganim yo‘q-ku...

* * *

3. O‘qituvchi: - Murod, uy vazifangni yana dadang qilib berdimi?

Murod: - Oyim band bo‘lganlaridan keyin nima qilay, axir?

* * *

4. - Anvar, sinfingizda eng yalqov kim?

- Bilmayman.

- Hamma yozayotganda, kim yozmay, qarab o‘tiradi?

- O‘qituvchimiz.

* * *

5. Ota:

- O‘g‘lim tabeling qani?

- Uni Sobirga berib yubordim. U ota-onasini qo‘rqitmoqchi.

* * *

6. Bir cho‘ponning o‘g‘li dadasiga:

- Dada, men qo‘y sanashning oson yo‘lini topdim.

- Qanday?

- Avval oyog‘ini sanab chiqaman-da, to‘rtga bo‘laman.

7. - Matluba Mahmudovna, - dedi o‘qituvchiga Abror. - Otam aytdi, biz maymundan tarqalgan ekanmiz.

- Jim o‘tir, Abror! - deb tanbeh berdi o‘qituvchi. - Sizning oilangizning tarixi meni qiziqtirmaydi.

8. Bir ayol: - Qizingiz imtihonni topshirdimi?

Ikkinchi ayol: - Qayoqdan topshirsin! Imtihon oluvchilar undan ming yil avvalgi voqealarni so‘rashibdi.

9. Geografiya o‘qituvchisi xayol surib o‘tirgan o‘quvchidan so‘radi:

- Qani ayt-chi, yer yuzida issiq joy qayerda?

- Men o‘tirgan pechkani oldi,-deb javob beribdi o‘quvchi.

10. O'qituvchi: - Otang onagga ellik so'm beradi. Keyin yigirma so'mini qaytarib oladi. Xo'sh, Vali, keyin nima chiqadi?

- Janjal chiqadi, hurmatli o'qituvchi.

11. - Sudraluvchi jonivorlar doimo yerda emaklab yuradilar. Murod, sudraluvchilarga misol keltira olasizmi?

- Ha, sudralib yuruvchi – mening kichkina singlim.

12. - Erkin alfavitni bilasanmi?

- Ha, dada, albatta, bilaman.

- Ayt-chi, "A" dan keyin qaysi harflar keladi?

- Qolganlarida...

13. O'qituvchi:

- Hoy bola, bir o'zing shuncha xato qilgani uyalmaysanmi?

- Bir o'zim emas, dadam bilan birga yozganman.

14. O'qituvchi Tolibdan so'radi:

- Partaning ustida sakkizta pashsha bor. Agar ulardan birini o'ldirsang, nechitasi qoladi?

- Bitta o'lgan pashsha qoladi-da...

15. - Dada nega sizni mashinangiz yo'q?

- Uni sotib olishga menda pul yo'q. agar sen maktabga yaxshi o'qisang, ehtimol katta bo'lganingda mashina sotib olarsan.

- Dada, demak, siz maktabda juda yomon o'qigan ekansiz-da...

16. - Jim! – dedi o'qituvchi. – Ovoz chiqarmay o'tiringlar. Pashsha uchgani bilinsin.

Bolalar jim bo'lib qolishdi. Nihoyat, birinchi sinf o'quvchilaridan bittasi chidab turolmay qichqirdi:

- Nimani kutyapsiz, ustoz! Qo'yib yuboring pashshani.

* * *

17. – Qani, kim aytadi – oltinni ochiq havoda qoldirsak nima bo'ladi? – so'radi o'qituvchi.

- Nima bo'lardi, o'g'irlab ketishadi, – dedi o'quvchi.

* * *

18. – Qani, Sobir, ayt-chi, uylaringda uchta sigir va uchta buzoq bor. Ularni bir-biriga qo'shsa nima bo'ladi? – so'radi o'qituvchi.

- Ularni qo'shib bo'lmaydi. – dedi Sobir.

- Nega? – ajablanib so‘radi o‘qituvchi.

- Buzoqlar sigirlarni emib qo‘yadi, - deb javob berdi Sobir.

* * *

19. Fizika o‘qituvchisi: - Faraz qilaylik – elektr lampasini yondirmoqchi bo‘ldik, lekin u yonmadi. Xo‘sh, sababi nima?

O‘quvchi: - Elektr haqini to‘lamagansiz-da.

* * *

20. Botir Sherzoddan so‘radi:

- Esingdami, bir oy oldin mendan kitob olgan eding?

-Yo‘q.

-O‘sha kuni kechqurun biznikida ovqatlangandik.

-Yo‘q, yo‘q. Sendan kitob olgan emasman.

-Hmmm... O‘sha kuni sendan 100 so‘m olgandim. Esingdan chiqibdi-da? – dedi jo‘rtaga.

- E, bo‘ldi, bo‘ldi. Hammasini esladim.

21. Ona o‘g‘lidan:

- Dadang olib bergan hamma o‘yinchoqlarni sindirib bo‘ldingmi?

-Yo‘q. Faqat bolg‘acha qoldi.

22. Abduraimni oilasida birdaniga uch bola tug'ildi. Beshyashar o'g'li undan so'radi:

- Dada, bu bolalarning uchovi ham biznikida qoladimi yoki bittasini tanlab olamizmi?

23. Ozoda dugonasi Xurshednikiga keldi. Uyda faqat qizcha Gulmira bor ekan.

- Oying qayerda?

- Oyim ikki soat oldin besh minutga Mayram xolanikiga chiqib ketuvdilar.

24. - Dada, Salim sovuqning o'g'li meni itdan tarqagan, deb so'kdi.

- Bekor aytibdi, bizlar maymundan tarqaganmiz, - deb qo'l siltadi ota.

25. Kichkina bola hayvonot bog'ida so'raydi:

- Nega jirafning bo'yi buncha uzun?

- Jirafning boshi tanasidan ancha uzoqda-deb javob beradi qoravul,-shuning uchun unga shunaqa uzun bo'yin zarur...

26. - Hoy o'g'lim, nega birovning bo'g'idagi olmaga chiqib olding?
- Bitta olma uzilib tushgan ekan, shuni joyiga ilib qo'yay deb chiqqan edim.

27. Bir kishi tish doktoriga boribdi.

- Tishni qanchaga olasiz?
- Yuz so'm.
- O'h-ho', juda qimmat-ku! Uni yigirma so'mga qimirlatib berolmaysizmi?

Qolganini o'zim qilib qo'yaqolardim.

28. Alijon tish doktoridan qaytib kelgach, onasi so'radi:

- Tishing hali ham og'riyaptimi?
- Bilmadim. Doktor uni olib qoldi.

29. Ota o'g'lidan so'radi: - Tishingni nega ketma-ket yetti marta yuvasan?

- Bir haftaga yetsin deb, - javob berdi o'g'li.

30. - Qizim olmadan singlingga ham berdingmi?

- Ha, berdim. Unga yaxshisini berdim.
- Qanday yaxshisini?
- Men unga urug'ini berdim. Ekib qo'ysa hademay daraxt bo'ladi va juda ko'p olma qiladi.

31. - Diyor, eshityapsanmi? Anavi tomonda kimdir baqiryapti, yordam so‘rayapti. borib bilib kelish kerak.

- Nima zaruri bor, hammasini “Davri” ko‘rsatuvidan bilib olamiz.

32. Boshliq bir stenografist qizni ishga olayotib so‘radi:

- Aytishlaricha siz juda tez yozar emishsiz?

- Ha, minutiga bir yuz o‘ttizta so‘z...

- Voy-bo‘-o‘! Shuncha so‘zni sizga qanday topib beraman?

33. Bir o‘smir bola otasidan pul undirmoq niyatida debdi:

- Dada, tush ko‘rdim. Tushimda menga yigirma besh so‘m beribsiz.

- Juda yaxshi bo‘libdi-da, o‘g‘lim. Yaxshi bola bo‘lganing uchun o‘sha pulni o‘zingga olib qolaqol.

34. Maymun daryo bo‘yida o‘tirib olib, suvni qamchilab haydayotgan emish. Timsoh so‘rabdi:

- Nima qilyapsan?

- Bir so‘m ber sang aytaman?

Timsoh bir so‘m beribdi.

- Qani, ayt-chi, nima qilyapsan?

- Ko‘rmayapsanmi? Suvni qamchilab haydayapman.

- Voy ahmoq-ey...

- Ahmoqmanmi, yo‘qmi, lekin har kuni o‘n so‘m – yigirma so‘m tushib turibdi.

35. Mehmon uy bekasiga tashvish bilan dedi:

- Itingiz biram yomon qaradi menga . . .

- Parvoqilmang. U idishidan ovqat yegan odamning hammasiga shunaqa qaraydi.

36. Qorni juda ochgan mehmon uy egasining o'g'lidan sekingina so'radi:

- Sizlar odatda qachon ovqatlanasizlar?

Bola javob berdi:

- O'zimiz soat birda, ammo uyda mehmon bo'lsa, u ketguncha sabr qilamiz.

37. Bir odam karvonsaroy eshigini qoqibdi:

- Kim bo'lasiz? – deb so'rabdi saroybon.

- Abu al Bashiriddin qozi Nizomiddin Muhammad Ahmadjon Ali Choshiy Qodiriddin bo'laman, - deb javob beribdi boyagi odam.

- Voy bo'-o', taqsirlar, buncha odamga joy topilmaydi, - deb javob beribdi saroybon.

38. Bir lofchi ikkinchisiga dedi. Bir yili shunday qattiq sovuq bo'lgandiki, o'sha yili rosa to'yguncha muzlagan baliq yedik.

Uning gapiga sherigi shunday javob berdi:

- O'sha aytganingizdan bir yil keyin o'sha daryoga o't tushib hamma narsa yondi. Rosa to'yib qovurilgan baliq yedik.

39. Tilanchi uy egasiga murojaat qildi:

- Bir paysa sadaqa qiling.

- Pul yo‘q, jo‘na!
- Bo‘lmasa, eski kiyimlardan bering.
- Eski kiyim yo‘q.
- Bir burda non bering.
- Iye! Hech narsa bo‘lmasa, nima qilib o‘tiribsiz? Turing birga tilanchilik qilamiz.

- . Bog‘bon olmaga chiqqan bolaga:
- Nima uchun olmaga chiqding?
 - “Maysa ustidan yurilmasin” deb yozib qo‘yibsiz-ku! Qayerdan yurishimni bilmadim.

41. - Nega yig‘layapsan o‘g‘lim?
- Otamni yo‘qotib qo‘ydim.
 - O‘zing uyingni topib borolmaysanmi?
 - Men-ku topaman, ammo otam topolmaydilar-da.

42. Bir donishmanddan so‘rashibdi:
- Sening ko‘pchilik odamlardan nima farqing bor?
 - Farqim shuki, ko‘pchilik odamlar yeyish uchun yashaydi, men esa yashash uchun yeyman.

43. Bir odam to'y qilibdi-yu, Qozi-kalonni to'yga aytish uchun Mushfiqiyni yuboribdi.

- To'yga aytgani birorta ham odam topilmaptimi, senga o'xshagan eshakni yuboripti.

44. - Ertalab yomg'ir yog'sa kerak, dedi pastlab uchayotgan qaldirg'och ikkinchisiga.

- Qayerdan bilding? – deb so'radi ikkinchi qaldirg'och.

- Odamlarning aytishicha, biz pastlab uchsak, albatta, yomg'ir yog'ar emish.

45. - Men siz bilan maslahatga keldim, - dedi qo'y bo'riga. – Nima qilsak siz ham to'q bo'lasiz, biz ham sog' qolamiz?

- Kelib juda yaxshi qilibsan, - dedi bo'ri. – Agar hamma shunaqa o'z oyog'i bilan kelib tursa, bizga hech qanaqa muammo bo'lmas edi.

46. Ko'pchilik bulbulni maqtabdi. Bundan hayron bo'lgan ho'kiz so'rabdi:

- Bulbulni maqtayapsizlar, shoxi juda zo'rmi deyman-da?

- Bulbulning shoxi yo'q.

- Tavba – deb hayron bo'libdi ho'kiz. – Shoxi bo'lmasa, nega muncha maqtashadi.

47. Aziza pashsha tutib onasiga dedi:

-Oyi shundan fil qilib bering.

-Bu mumkin emas, qizginam.

-Dadam sizni doim pashshadan fil yasaydi deydilar-ku.

48. Bolalar gaplashyapti:

-Kecha dadam chiroyli qoshiq olib keldi. Unda dadamning ismlari yozilgan ekan.

Ikkinchi bola maqtanibdi:

-Kecha mening dadam ham ancha kumush qoshiq olib keldi. Ularning barchasida “O‘zbekiston mehmonxonasi” deb yozilgan.

* * *

49. – Bolalarim-ey, namuncha quloqsiz bo‘lmasalaring, sira aytganimga kirmaysanlar-a, - deya nabiralari sho‘xligidan nolidi buvi.

- Buvijon, mening qulog‘im bor. Faqat sochim o‘sib, ko‘rinmay qolgan-da,- dedi Ruxsora.

* * *

50. - Aka, qo‘lingizdagi qanday kitob?

- Zoologiya. Unda barcha hayvonlarning yashash tarzi o‘rgatiladi.

- Unda bu kitob hayvonot bog‘i ekan-da!

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1. O'zbek bolalar antologiyasi. I –qism .Toshkent-2007.**
- 2. O'zbek bolalar antologiyasi. II –qism .Toshkent-2007.**
- 3. Kim ko'p qissa biladi. R. Jo'raqulov. Samarqand, 2010-yil**
- 4. Kim ko'p ertak biladi. R. Jo'raqulov. Samarqand, 2010-yil**
- 5. Jahon xalq ertaklari. Toshkent- 2013**
- 6. Kim ko'p latifa biladi. R. Jo'raqulov. Samarqand, 2010-yil**
- 7. O'zbek xalq maqollari. Toshkent- 2012**

